RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

TA’LIM FIDOYILARI

JIFACTOR: 8.2

2025

- PHILOLOGICAL SCIENCES
- PEDAGOGICAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES AND HUMANITES
- EXACT SCIENCES
- NATURAL SCIENCES
- ECONOMICS
- ART AND CULTURE
- MEDICAL SCIENCES



OPEN ACCESS

doi

ISSN:2181-2160

+998 97 277 78 01
WWW.REANDPUB.UZ
INFO@REANDPUB.UZ

R.A.P

CYBERLENINKA BASE OpenAIRE Google Scholar

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2

«TA’LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO’YICHA

10-SON, 1-JILD OKTABR 2025 - YIL 1-QISM

WWW.MAQOLA.REANDPUB.UZ

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2

TA'LIM FIDOYILARI

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TA'LIM FIDOYILARI
ILMIY-USLUBIY JURNALI

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Xaytbayeva Nodira Seytjanovna
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti, "Don va don dukkakli ekinlarning zararli organizmlariga qarshi kurashish laboratoriyasi" katta ilmiy xodimi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc)

Nafasov Zafar Nurmahmadovich
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti laboratoriyasi mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yazdonov Ulug'bek Tashmurotovich
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlar doktori

Abdullayeva Asila Abdulxodiyevna
"University of Business and Sciense" oliy ta'lim muassasasi. Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Alimjon Tojiev Mo'ydinovich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qiituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Sodiqov Davron Sodiq o'g'li
Doctor of philosophy (PhD) degree on agricultural sciences Sericulture Research Institute

Saidova Markhabo Xabibullo kizi
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

Begmatov Toir Muxtorovich

Doctor of philosophy (PhD) degree on agricultural sciences

Sericulture Research Institute

Abdullayeva Dilnoza Bahodir qizi
Master of Education Management, TSUE
E-mail: dilnozasalimova97@mail.ru

Government Mechanisms to Support Small Entrepreneurship: Comparative Analysis and Practical Insights

Abstract

This article presents a concise analytical review of government support mechanisms for small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan, Russia, and the United States in 2024. The paper examines financing tools, infrastructure measures, and digital services, and evaluates the effectiveness of these mechanisms based on key indicators. Recommendations are provided for implementing monitoring systems, improving project selection criteria, and expanding regional infrastructure. The material includes a table of key indicators and two comparative charts.

Introduction

Small and medium-sized enterprises play a vital role in economic flexibility and job creation. Government support remains a critical factor, particularly in periods of structural change and post-crisis recovery. The goal of this study is to identify the most effective practices and provide actionable recommendations that can be applied in countries with different levels of institutional development.

Methodology

The analysis relies on official statistics and reports from 2023–2025. Key comparison metrics include SME share of GDP, number of enterprises, primary financing programs, and infrastructure support measures. The approach combines quantitative comparisons with qualitative assessment of policy implementation.

Country	SME Share of GDP	Number of SMEs	Main Instruments
Uzbekistan	54.3%	643,851	Simplified tax system, concessional loans, digital services
Russia	21.7%	≈ 6,590,000	Interest rate subsidies, support centers, grants
United States	43.5%	34,800,000	Credit guarantees, microloans, R&D grants

Key Indicators for 2024

Figure 1. SME share of GDP by country, 2024





Figure 2. Number of SMEs, latest available data



Analysis of Effectiveness

Uzbekistan shows a high SME share of GDP (54.3%), reflecting a broad base of microenterprises and agricultural firms. The country benefits from rapid digitalization of registration and credit services but lacks a unified monitoring and evaluation system, which limits the ability to track business survival rates and revenue growth after receiving government support.

Russia records a large number of registered SMEs with a relatively low GDP contribution. This indicates low average profitability and strong regional disparities. Many programs focus on subsidized lending, but their return on investment needs careful evaluation.

The United States combines credit guarantees with a well-developed private ecosystem, ensuring a higher GDP share and job creation. Government instruments complement market financing and emphasize outcome measurement.

Critical Gaps and Risks

Uzbekistan lacks a nationwide monitoring system to evaluate program effectiveness. Russia faces bureaucratic hurdles and uneven regional performance. In the United States, access to finance remains challenging in depressed and remote areas. All three countries

face a shortage of reliable data on the survival rates and revenue growth of businesses receiving government support.

Recommendations

1. Establish a public monitoring dashboard with open data on beneficiaries, funding amounts, and survival indicators.
2. Revise project selection criteria to prioritize expected economic returns and scaling potential rather than application volume.
3. Expand regional infrastructure through mobile incubators and outreach consulting services.
4. Pilot return-on-investment evaluations of key programs in selected regions and use findings for budget reallocation.
5. Support microfinance and dedicated programs for entrepreneurs from vulnerable groups.

Conclusion

Comprehensive SME support is most effective when financial measures are combined with infrastructure and robust monitoring. The proposed steps can improve transparency, enhance project selection quality, and increase the return on government investment in the SME sector.

References

1. Izvestia (2025) *Experts spoke about growth in the number of SMEs in the Russian Federation to 6.7 million*. Available at: https://en.iz.ru/en/1878412/2025-04-29/experts-spoke-about-growth-number-smes-russian-federation-67-million (Accessed: 27 September 2025).
2. Izvestia (2025) *Ministry of Economic Development reported 3% increase in number of small and medium-sized companies in Russia*. Available at: https://en.iz.ru/en/1918647/2025-07-10/ministry-economic-development-reported-3-increase-number-small-and-medium-sized-companies-russia (Accessed: 27 September 2025).

3. Kun.uz (2025) *Uzbekistan sees 18% surge in the number of individual entrepreneurs in 2024*. Available at: https://kun.uz/en/news/2025/01/17/uzbekistan-sees-18-surge-in-the-number-of-individual-entrepreneurs-in-2024 (Accessed: 27 September 2025).
4. OECD (2024) *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing. Available at: https://www.oecd.org/en/publications/2024/03/financing-smes-and-entrepreneurs-2024_015c0c26.html (Accessed: 27 September 2025).
5. SBA Office of Advocacy (2024) *SBA 2024 Capital Impact Report*. Washington, D.C.: U.S. Small Business Administration. Available at: https://www.sba.gov/document/report-sba-2024-capital-impact-report (Accessed: 27 September 2025).
6. Stat.uz (2025) *The number of active enterprises and organizations in Uzbekistan continues to decline*. Available at: https://kun.uz/en/news/2025/02/28/statistics-agency-the-number-of-active-enterprises-in-uzbekistan-is-sharply-declining (Accessed: 27 September 2025).
7. Trend News Agency (2025) *Uzbekistan to allocate $9.6 billion for supporting SMEs in 2025*. Available at: https://www.trend.az/casia/uzbekistan/4021378.html (Accessed: 27 September 2025).
8. World Bank Group (2024) *Annual Report: Financial Summary*. Washington, D.C.: World Bank. Available at: https://www.worldbank.org/en/about/annual-report/financial-summary (Accessed: 27 September 2025).
9. Zamin.uz (2025) *Number of active companies in Uzbekistan reduced by 100,000 from 2022 to 2025*. Available at: https://zamin.uz/en/uzbekistan/148805-active-companies-reduced-by-100000-from-2022-to-2025.html (Accessed: 27 September 2025).
10. International Finance Corporation (2024) *IFC to help financial institutions support small businesses through new global MSME financing platform*. Washington, D.C.: World Bank Group. Available at: https://www.ifc.org/en/pressroom/2024/ifc-to-help-financial-institutions-support-small-businesses-through-new-global-msme-financing-platform (Accessed: 27 September 2025).

O’ZBEK OILALARIDA AXLOQIY MUNOSABATLARNING DINIY TARBIYASI (ISLOM DINI MISOLIDA)

Nazira Xamroeva.
Vobkent tuman bosh otinoyisi.
Zokirova Rano
Buxoro Vobkent Islomshunos.

Annotatsiya. Oila har bir inson hayotidagi eng muhim dargohdir. Agar oila tinch-totuv, bir-biriga nisbatan mehr bilan yashasa u yerga allohning barakasi yog`iladi. Ushbu maqolada o‘zbek oilalari axloqiy munosabatlarida din omili va diniy tarbiyaning ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: oila, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy bo‘g‘i, muqaddas robita, his-tuyg’ular, dunyoqarash, tafakkur, jamiyat, ayol, insoniy qadr, ilohiy ko’rsatmalar, erkaklar, xotinlar.

Oilaning tibbiy, huquqiy, iqtisodiy savodxonligini oshirish masalalari ilgari surilayotgan bir davrda, diniy savodxonlikka ham ega bo’lishlikni davrning o’zi taqozo qilyapti. Zero, islom dini yaxshlik, ezgulikni ulug’lovchi din bo’lishi bilan birga unda oila mustahkamligiga ham alohida urg’u berilgan. Bunda “Qur’oni Karim” va “Hadislar” asosiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ommalashyotgan gendir tenglik tushunchasi va g’oyasi bundan necha asr oldin islom dinida o’z aksini topgandir. Xususan, quyidagi “Niso” (“Ayollar”) surasining 1-oyatda “Ey odamlar! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havvo) ni yaratgan hamda u ikkisidan ko’p erkak va ayollarni tarqatgan Robbingizdan qo’rqingiz!.

Ushbu oyatda insonning ey inson, xitobi orqali uning kim ekanligi haqida eslatib turuvchi ulug’vorlik mavjuddir. Zero, u inson ekanligini, buni hech qachon unitmagan holda insoniylikka xos amallar qilishga chaqiriladi. Shuningdek, ayol va erkakni bir jondan yaratilganligi ularning o’zaro Alloh va din oldida birdek teng ekanligini, Alloh nazdida maqul hisoblanmagan amallardan voz kechishlikka davat mavjuddir. Islomda ayollar ona, opa-singil, jufti halol va qiz sifatida hurmatlanadi. Ular meros oladi va meros qoldiradi,

nikohda roziligi so'raladi. Ular doim erkak qarindoshlari ta'minoti ostida bo'lishadi. Bundan ko'rinadiki, ayollar va erkaklarning o'zaro teng va bahamjihatlikda yashashining o'ziyoq farzandlar tarbiyasining uyg'un bo'lishida muhim.

"Rasulloh (s.a.v) aytadilar: Alloh tallo marhamatni yuz bo'lak qilib yaratdi - da, undan to'qson to'qqiz bo'lagini o'zida qoldirib, bir bo'laginigina yer yuziga tushirdi. Mana shu bir bo'lak rahmat bilan hamma maxluqotlar bir - biriga rahm qilishadi, hatto ot ham o'z toychog'iga tegib ketmasin deb ayab, oyoqlarini yuqoriga ko'tarib turadi". Haqiqatdan, yoshlik chog'imizda to'g'ri yo'lda ham qoqilib yiqiladigan paytlarimizda ota-onamiz bizga ziyon - zahmat yetmasin deb doim tashvishda bo'lishadilar. Nega endi biz farzand bo'la turib ota - onamizning keksalik deb atalmish umur ostonasiga kelgan bir paytlarida ular berishadigan oddiy savolariga javob berishda qo'rslik qilamiz, ko'ngillarini og'ritamiz, yig'latamiz. "Ota - onaning yig'lashi boladan norozi bo'lganliklaridan dalolat beradi va bu esa katta gunohlardandir". Nimaga buni bila turib yana xato qilaveramiz ?.

Jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makoni oiladir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o'gitlari orqali milliy qadriyatlarimizga bo'lgan imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga o'tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va g'oyaviy muhiti sog'lom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo'ladi. Chunki bunday oilalarda ma'naviy barkamol inson voyaga yetadi, uning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, tafakkuri el-yurtga halol xizmat qilishdek insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. O'zbeklarda oilaning rahbari ota hisoblanib, u oilani moddiy jihatdan ta'minlashga mas'uldir. Alloh taolo insoniyat naslining nikoh yo'li bilan davom etishini iroda qilib, O'zining so'nggi va mukammal dinida bunga oid barcha hukmlarni bayon etgan. Shuning uchun dinimizda ushbu muqaddas – nikoh tufayli vujudga keladigan oilaga katta e'tibor beriladi. Islom dini nikohni, oilaning sha'nini qanchalik himoya qilishini, maxluqotning gultoji bo'lmish inson naslining davomiyligini ta'minlovchi ilohiy ko'rsatmalar Qur'oni karimda ham bosh mavzulardan biri ekanini anglash uchun Niso surasidan ikki oyat va ularning tafsiri bilan tanishish kifoyadir. «Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlarini (erkaklarni) ayrimlaridan (ayollardan ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z

oilasiga) o'z mol mulkidan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – (Allohga va eriga) itoatli, g'oyibga Alloh saqlaganicha himoyatlilardir (ya'ni erining sirini, molini va obro'sini saqlovchidir). Xotinlarning itoatsizligidan qo'rqsangiz, avvalo ularga nasihat qiling, so'ngra (bu ta'sir qilmasa) ularni o'rinlarda (aloqasiz) tark eting, so'ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo'lmagudek darajada) uring. Ammo sizga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo'l axtarmang. Albatta, Alloh oliy, ulug' Zotdir» (34-oyat). «Agar (er-xotinning) oralari buzilib ketishidan qo'rqsangiz, er oilasidan bir hakam, xotin oilasidan bir hakam yuboring. Agar (er-xotin) islohni xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay. Albatta, Alloh bilimdon, xabardor Zotdir» (35-oyat).Albatta, jamiyat xayr baraka ila rivoj topib borishi uchun unda tartib-intizom, tinchlik-omonlik hukm surishi, muayyan bir rahbar bo'lishi lozim. Islom ta'limotiga ko'ra, oila jamiyatning asosidir. Shunday ekan, oilaning ham rahbari bo'lishi kerak. Ana shu rahbarlik erkakka berilgan. Bugungi kunda dunyoning yetakchilari hisoblangan G'arb davlatlarida oila institutining ahvoli naqadar halokatli jar yoqasiga kelib qolgan barchamizga ma'lum. Ammo afsuski, o'zini musulmon sanab yurganlar orasida ham oilaga oid, er-xotinning haq-huquqlariga, burch va majburiyatlariga oid qonun-qoidalarni bilmaydiganlar, bilsa ham ularni pisand qilmaydiganlar paydo bo'lib, jamiyatimizda oilaviy muammolar, qo'ydi-chiqdilar ko'payib qoldi. Agar bunda kimsalar mazkur ko'rsatmalarning shariatning hukmi, Alloh taoloning amri ekanini his qilsalar edi, bugungi kunda yechimini kutib yotgan qator muammolar mutlaqo vujudga kelmagan bo'lar edi. Birgina oyatdagi hukmlar buzilmasa yoki ularga rioya qilinsa, butun insoniyatning taqdiriga, o'sib kelayotgan avlodning kelajagiga xavf soladigan vaziyat yuzaga kelib qolmagan bo'lar edi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, Oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror bo'lib turishida, farzand tarbiyasida onaning, ayolning o'rni beqiyos. Farzandlarimizning oilada shakllangan imon e'tiqodi, odobi, g'ururi, iftixori, oriyati, mahalla muhitida mustahkamlanib boradi. Oilada imon-e'tiqodli oriyatli etib tarbiyalangan qiz yoki o'g'il mahallaning sha'ni, obro'si, kelajagi uchun qayg'uradi. Mahallada yuzaga kelgan har qanday noxushliklarga barham berishga intiladi. Tarix saboqlaridan ma'lumki, inson qalbiga bunyodkor g'oyalarni singdirish ma'naviy barkamollikni ta'minlaydi. Bu kabi bunyodkorlikka da'vat umuminsoniy va diniy qadriyatlarimizga hurmat, ularni sevib o'qish va uqishda ham mujassam. Bunday tarbiya

bolalarga diniy qadriyatlarimizning sarchashmalari Qur'oni karim, hadisi shariflar, ajdodlarimiz ma'naviy merosi orqali singdirib kelingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xaqlimiz bejizga "Bola loy bo'lsa, ota - ona kulol" deyishmagan. Oilada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy - axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi fanlariga oid bilimlarni ham qamrab olishi zarur. Faqatgina buni shunchachi baland parvoz so'zlar deb emas hayotning oddiy haqiqati sifatida qarashni o'rganish, faqat o'rganishgina emas amaliy isbotini yaratish lozimdir. Bunda ota-onalarnining tenglik huquqiga tayanilgan holda tashkil etilgan tarbiya eng adekvat varianti bo'lib xizmat qiladi. Bunda bizning oldimizda turgan birinchi vazifa bu oila tarbiyasida tenglik tushunchasining tub mohiyatni o'quvchi yoshlar onggiga yetkazib berishdan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida.

2. M.O'rmonova. Islomda oilaning m.uqaddasligi. 2021-07-30. https://qoshtepa.uz/site/view/news/2420

3. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Sayid Mahmud Taroziy-Alixon to'ra tarjimasi. T.: "Mehnat" nashr, 1991.

4. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy. A.Abdullo tarjimasi. T.: G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1993.

5. Ismoil Mahdum. Toshkentdagi "Mushafi Usmoniy" tarixi. T.: 1996.

6. Imom al-Buxoriy. Al-Jomi as-Sahih: IV jild. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.

7. 10.Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. T.: O'zbekiston, 1990.

TOPISHMOQLARDA METAFORIK TAGMA'NO VA UNING IFODALANISHI

METAPHORICAL IMPLICATION IN RIDDLES AND ITS EXPRESSION

Muyassar SAPARNIYAZOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.
Navruza MAMAJONOVA,
Alfraganus universiteti o'qituvchisi
Muhammadsodiq SHODMONOV,
Alfraganus universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining qadimiy va betakror namunalaridan biri bo'lgan topishmoqlardagi metaforik tagma'no tahlil qilingan. Metaforik tagma'no topishmoqlarda axborotning yashirin bayonini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'lib, fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida ko'rilishi ochib berilgan. Shuningdek, subyekt, obyekt va predikatlarning metaforik turlari, ularning sintaktik holati va matndagi funksiyasi misollar bilan tahliliy fikrlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *topishmoq, metaforik tagma'no, yashirin ma'no, subyekt, obyekt, predikat, predikativlik, semantik komponent, xalq og'zaki ijodi.*

Abstract. This article analyzes the metaphorical implication in riddles, which are one of the ancient and unique examples of folklore. Metaphorical implication is revealed as a means of expressing hidden information in riddles, and its role as an important factor in developing thinking activities is elucidated. Furthermore, the metaphorical types of subjects, objects, and predicates, their syntactic status, and their function in speech are illustrated with examples and analytical arguments.

Key words: *riddle, metaphorical meaning, hidden meaning, subject, object, predicate, predicative function, semantic component, oral folk literature.*

Topishmoqlarda fikrlash faoliyatining natijasida noma'lum voqelikning ma'lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent ishtirok etadi, ya'ni topishmoqda so'zlovchi nazarda tutgan axborot oshkora bayon qilinmasdan, yashirin mazmun ko'rinishlaridan iborat bo'ladi.

M.Hakimov yashirin mazmun ifodalash shakllari turlicha ko'rinishlardan iborat bo'lganligi uchun ularni umumiy va xususiy yashirin ma'nolar deb ikki guruhga ajratadi. U

shunday yozadi: "Umumiy yashirin ma'nolar so'zlovchi, tinglovchi va barcha nutq ishtirokchilari anglab olishi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolardir. Bularga ibora, replika, maqol, matal, topishmoq va shu kabilar kiradi" [Hakimov M.X, 2001:35]

Axborotning oshkora bayoni ifodaning har qanday ko'rinishida mavjud bo'lib, nutq predmeti haqidagi propozitsiyani anglatadi. Axborotning yashirin bayoni esa ana shu oshkora bayon tarkibiga joylashtiriladi. Topishmoqlarda berilgan axborot bayoni xuddi shunday yashirin xarakterda bo'lib, biz bu ma'noni metaforik tagma'no (M.Qahramonov) atamasi bilan berishni ma'qul ko'rdik.

"Tagma'noning bunday ko'rinishlarida so'zlovchi tinglovchini ma'lum bir predmetlarga o'xshatish asosidagi propozitsiyani berish bilan o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi" [Hakimov M.X, 2001:35]. Topishmoqlarda metaforik tagma'no quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Gapning mazmuniy tuzilish birligi bo'lgan subyekt "shaxs", subyekt "noshaxs [Abdullayeva D. T., 2001:6]" yashirin ma'noga ega bo'ladi, bunda u o'z aniqlovchisi bilan deskriptiv holatda (bir nechta so'zdan tashkil topgan, birikmali) bo'ladi.

2. Subyekt metaforik tagma'no real va noreal mazmun negizida hosil bo'ladi. Mazkur topishmoqlar "… ikki parallel ma'no sathiga (tashqi va ichki, ochiq va yashirin) so'zlar esa ikki yoqlama aloqadorlik xususiyatiga ega, binobarin, bir vaqtning o'zida har ikki ma'no sathida ham mavjud" [Abdullayev J.X., 1993:14]. Boshqacha qilib aytganda, topishmoq xabar, darak bildiruvchi oddiy gapdan farq qilmaydi. Rus tilshunosi A.I.Yefimovning ta'kidlashicha, "Odatda badiiy asarda obrazli figurali ma'noda qo'llangan so'z unga tobe bo'lgan, mazmunan unga bog'langan va u singari ko'chma – metaforik ma'noda qatnashuvchi butun bir so'z zanjirini ham o'ziga tortib turadi. Tushunish uchun o'ziga xos tagma'no zarur bo'lgan yaxlit metaforik matn vujudga keladi. Metaforik matn asosida o'ziga xos ma'noviy parallellizm, ikki mazmun qatorining mavjudlik holati sifatida tushuniladigan ma'noviy juftsathlik yotadi" [Ефимов А.И. , 1957:123].

Fotima – Zuhra urishadi,

Merosini bo'lishadi. (Qaychi)

Qo'shnimning arqoni devordan oshib tushdi. (Oshqovoq)

Bu topishmoqlarda *Fotima-Zuhra* – egizaklar, qaychining ikki tig‘iga ishora; real denotat - *Fotima-Zuhra*, metaforik tagma’no – qaychi. *Qo‘shnimning arqoni* – real denotat, oshqovoq – metaforik tagma’no.

Noreal mazmun negizida subyekt metaforik tagma’no hosil qiladi:

Bir yaproqda o'ttiz kelin soch taraydi. (Oy, kunlar)

Katta oppoq dasturxon hamma yoqni qoplagan. (Qor)

Bularda bir yaproqda o'ttiz kelin soch tarashi, dasturxonning hamma yerni qoplashi noreal voqeadir. Subyekt metaforik tagma'no – topishmoqlarda topilishi kerak bo‘lgan, jumboqlanayotgan so‘z ega vazifasida keladi.

2. Ob'yekt umumyashirin ma’noga ega bo‘ladi. O‘z navbatida obyekt metaforik tagma’no ham ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

a) Real mazmunli obyekt – metaforik tagma’no:

Qizil buzoqimni og‘ildan qaytarsam, chiqmaydi. (Til)

Yurib, oq tovuqimni yo‘qotdim. (Tupuk)

b) Noreal mazmunli obyekt – metaforik tagma’no:

Esonboy akamning qissasini el yig‘ilib tikolmas. (Yer yoriği)

Ajab bir gumbazlik uy ko‘rdim, na eshigi bor, na teshigi. (Yomg‘ir ko‘pigi)

Obyekt metaforik tagma’no gapning to‘ldiruvchi konstruktiv bo‘lagi sifatida keladi. Subyekt va obyekt umumyashirin ma’noga ega bo‘lganda, topishmoq tarkibida real denotat sifatida ishtirok etadi. Topishmoqlarda metaforik tagma’noning yana shunday ko‘rinishi ham mavjudki, ularda metafora predmeti ishtirok etmaydi. Tinglovchi aniq kommunikativ vaziyatda so‘zlovchi tomonidan berilgan ifoda mazmunini qabul qilar ekan, ifodaning mazmunida so‘zlovchi nimani nazarda tutganligini aniqlashi zarur bo‘ladi. Buning uchun tinglovchi so‘zlovchi nutqiga xos “A” ifodasidan “B” semantik xulosani topib olishi shart hisoblanadi. Metaforik tagma’noning bu ko‘rinishini shartli ravishda predikat metaforik tagma’no deb atashni ma’qul ko‘rdik.

Tutgan yerini uzar. (Ombir)

Urmasdan yig‘latadi. (Piyoz)

Umumyashirin ma’no kasb etgan harakat – predikatlar yashirin denotat – topishmoq javobi bilan birgalikda predikativ ifoda hosil qiladi: Ombir uzadi, piyoz yig‘latadi kabi.

Shuni ta’kidlash kerakki, asosiy mantiqiy urg‘uni harakat, ya’ni predikat o‘z ustiga olishiga qaramasdan (uzish – ombirning, yig‘latish – piyozning asosiy xususiyati) kesim ham deskreptiv holatda bo‘lishni taqozo etadi.

Axborotni tushunish jarayonida kesimning argument bo‘laklari barchasi barobar xizmat qiladi. Predikat metaforik tagma’nolarining mazmuniy va uyushtiruvchi markazi fe’l predikatlar va ot predikatlar sanaladi.

Fe’l predikatlarning valentliklarini to‘ldirib kelgan sintaktik qurilmalar deskriptiv kesimning hosil bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra, predikat metaforik tagma’nolarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Subyekt uzvli predikat metaforik tagma’no:

Past osmondan qor yog‘ar. (Elak)

Momom ketib boryapti,

Kulchasi qolib boryapti. (Tuya oyog‘ining izi)

O‘rin-pait uzvli predikat metaforik tagma’no:

Kunu tun yuradi, doim bir joyda turadi. (Soat)

Qishda yaxlamaydi, yozda yaxlaydi. (Sho‘r yer)

Tarz uzvli predikat metaforik tagma’no:

Uchib kelar g‘oz kabi,

O‘rin solar muz kabi,

G‘ijirlar saxtiyon kabi,

Achchiq bo‘lar tuz kabi. (Qor, ayoz)

Shart uzvli predikat metaforik tagma’no:

Yotsa turmas,

Tursa yotmas. (Qop)

Bir to‘kilsa, qayta to‘lmas. (Obro‘, nomus)

Xalq topishmoqlarida ko‘zda tutilgan mazmun ixcham, yashirin ifodalanadi. Shu bilan voqelikdagi narsa-hodisalarni qiyosan anglash, his etish, o‘rganishga keng imkon yaratadi, mantiqiy tafakkur taraqqiyoti uchun eng qulay va muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Topishmoqlar fikrning ichham ifodalanish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli ko‘p hollarda subyekt garchi eksplicit ifodalansa ham, u bevosita holat, belgi egasi bo‘la olmaydi.

Topishmoqlarda eksplisit ifodalangan subyekt tashqi va ichki ma’no sathiga ega bo‘ladi.Masalan: *Sariboy akam ichkari, soqollari tashqari*. (Sabzi) Bu topishmoqda subyekt – *Sariboy akam* tashqi ma’no sathida real denotatni ifodalab kelganday bo‘ladi. Ichki ma’no sathida esa *Sariboy aka* – sariq rangli predmetga, ya’ni sabziga ishora qiladi. Bunday subyektni biz shartli ravishda mantiqiy qavola subyektlar deb nomladik. “Havola bo‘lak”, “Havola birlik” terminlariga N.Maxmudov, A.Nurmonov [Нурмонов А. Маҳмудов М., 1995:172] umumiy tilshunoslikdagi “deyksis belgilar”ga bog‘lab ta’rif berishadi, olmosh, nisbiy so‘zlar kabilarni deyksis belgilar sifatida qo‘shma gaplarda qatnashuvchi qavola bo‘laklari deb nomlaydi. Subyekt ko‘pincha mantiqiy havola bo‘laklar vazifasida keladi. Buning mohiyati shundan iboratki, ular mazmunni, voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko‘ra ularni mazmunan kuchsiz, bo‘sh so‘zlar sifatida qarash mumkin. [Вейнрейх У., 1970:177-183].

Yuqoridagi topishmoqda *Sariboy akam* havola bo‘lagi bor. U subyekt - ega vazifasida kelgan. Mazkur subyektning topishmoq javobiga (sabzi) qavola qilinishiga ko‘ra mazmunan ega o‘rniga qo‘yib idrok qilinadi: Sabzi ichkarida, palagi tashqarida. Demak, parallel ma’no sathlari bo‘yicha mazkur topishmoq subyektlari:

Sariboy aka – tashqi ma’no sathi – mantiqiy qavola bo‘lak bo‘lsa,

sabzi – ichki ma’no sathida real denotatdir. Yoki: Oltmish ikki aybni oq yopar. (Qatiq). *Oq* – tashqi ma’no sathi – mantiqiy qavola bo‘lak bo‘lsa,

qatiq – ichki ma’no sathida real denotatdir. Bu gapni: *Oltmish ikki aybni qatiq yopar* deb transformatsiya qilish mumkin.

Xulosa qilinganda, topishmoqlarda ritorik so‘roq gapdan anglashiluvchi javobga ishora qiluvchi bo‘lakka tinglovchi e’tibori jalb qilinmaydi, balki topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning metaforik “muqobili” logik urg‘u oladi. Natijada, ritorik so‘roq gapdan anglashiladigan javob topishmoq javobi sanaladi.

Eksplisit subyekt ot va otlashgan so‘zlar orqali ifodalanadi va gapda ega, to‘ldiruvchi va qaratqich pozitsiyalarida keladi.

Xalq topishmoqlarida subyektning implisit, ya’ni grammatik jihatdan ifodalanmagan, mantiqan ko‘zda tutilgan holati ham mavjud, topishmoqlarda implisit sub’yekt topishmoq javobi orqali reallashadi. Shuningdek, topishmoqlarda noma’lum voqelikning ma’lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent – metaforik tagma’no ishtirok etishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaev J.X. O‘zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T., 1993. – 114 b.
2. Abdullaeva D.T. Mazmuniy subyekt va uning o‘zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 2001. – 25 b.
3. Hakimov M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik tasnifi Filol. Fanlari nomzodi d-ri dis. … avtoref. – T., 2001. – 35 b.
4. Nurmonov A. Mahmudov M. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 232.
5. Вейнрейх У. О семантической структуре язика. В кн. Новое в лингвистик Веил У. – М: Прогресс. 1970. –183 с.
6. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.: МГУ, 1957 – 123 с.
7. Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг семантикаси ва синтаксиси. – Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ, 2009.

Бабаев Толибжон Абдужалилович,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
“Сиёсий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси, PhD.

ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Ушбу илмий мақолада Янги Ўзбекистонни қуриш жараёнида фуқаролик жамиятининг ривожланиш тенденциялари тадқиқ этилган. Мамлакатимизда фуқаролик жамиятининг тараққиёти босқичларга бўлиниб, унинг асосий специфик ҳусусиятлари очиб берилади. Таҳлиллар асосида илмий асосланган хулосалар чиқарилган.

Калит сўзлар: ижтимоий-сиёсий асос, фуқаролик жамияти, тараққиёт, Янги Ўзбекистон, ислоҳот, нодавлат нотижорат ташкилотлари.

Ўзбекистон мустақиллик йилларида ўз олдига қўйган стратегик мақсад – ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантириш босқичма-босқич асосда, айрим ҳолда ютуқлар, баъзида муаммо ва камчиликлар билан кечмоқда. Юртимизда азал-азалдан жамоатчилик институтлари, асосан ўзини ўзи бошқариш органлари – маҳаллалар кўринишида намоён бўлган. Бугунги кунда юртимизда халқаро ҳуқуқнинг умумқабул қилинган принциплари ва нормаларига тўла жавоб бера оладиган ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамияти бошқа институтларининг фаолиятини самарали ташкил этишга зарур шароитлар яратишга қаратилган қонунчилик базаси яратилмоқда. Хусусан, Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари фаолиятига оид қонунчиликнинг шаклланиши ва ривожланишини **тўртта босқичга** бўлиш мумкин.

Биринчи босқич 1991-2002 йилларни ўз ичига олиб, нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини ташкил этишга оид қонунчиликнинг шаклланиш даври ҳисобланади. Бу даврда бир қанча қонун ва қонуности ҳужжатлар қабул қилинган.

Иккинчи босқич 2003-2009 йилларни ўз ичига олиб, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари фаолиятининг ҳуқуқий кафолатларини ҳамда уларнинг моддий-техник салоҳиятини янада кучайтириш.

Учинчи босқич ўзида 2010-2016 йилларни қамраб олиб, фуқаролик жамияти институтларини, хусусан, мустақил ОАВ ва маҳалла институтини янада ривожлантириш ҳамда уларнинг давлат ҳокимияти органлари билан ижтимоий ҳамкорлик ўрнатишининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш даври бўлди.

Тўртинчи босқич 2017 йилдан бугунги кунга қадар бўлган даврни ўз ичига олиб, янгиланаётган Ўзбекистонни демократлаштириш ва либераллаштириш босқичи ҳисобланади ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотлари жамоатчилик назоратининг реал субъектига айлангани билан изоҳланади.

Фуқаролик жамияти ва унинг институционал асосларининг ривожи, энг аввало, мамлакатнинг умумий тараққиёти даражаси билан боғлиқ ҳолда кечади. Чунки, фуқаролик жамияти бевосита халқимизнинг талаб-эҳтиёжлари, ҳуқуқий маданияти, ижтимоий фаоллиги ва, ниҳоят, сиёсий тафаккурига чамбарчас боғликдир[1]. Шу ўринда, сўнгги 5-6 йил ичида Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини мустаҳкамлаш ва янада ривожлантириш борасида бир қанча амалий қадамлар қўйилди, дейишимиз мумкин.

Шулардан бири бу, шубҳасиз, 2020 йил 16 апрель куни қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида"ги[2] Фармони асосида ташкил этилган Жамоатчилик палатаси бўлди. Маълумки, Президент Шавкат Мирзиёев 2020 йилнинг январь ойида Олий Мажлисга Мурожаатномасида фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш юзасидан бир қатор таклифларни илгари сурган эди. Хусусан, жамоатчилик назоратини кучайтириш ҳамда давлат ва жамият ўртасида яқин ҳамкорлик ўрнатиш мақсадида у Ўзбекистон Республикаси Жамоатчилик палатасини ташкил этишни таклиф қилди[3].

Жамоатчилик палатаси иш фаолиятининг асосий йўналишлари сифатида: давлат, фуқаролар ва фуқаролик жамияти институтларининг мамлакатни янада жадал ва ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатларини бирлаштирувчи замонавий шаклдаги тизимли ҳамда самарали мулоқотини йўлга қўйиш ҳамда уларнинг ижтимоий манфаатлари келишилишини таъминлаш, фуқароларнинг давлат ва жамият ишларидаги иштирокини фаоллаштиришга ҳамда давлат-хусусий шерикликнинг замонавий механизмларини жорий этишга кўмаклашиш[4] каби бир қанча функциялар белгилаб берилди.

Шунингдек, Жамоатчилик палатасига "жамоатчилик эшитуви", "жамоатчилик экспертизаси", "жамоатчилик мониторинги" каби механизмларни қўллаш, ҳар йили Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг ҳолати ва ривожланиш тенденциялари тўғрисида миллий маърузалар тайёрлаш вазифалари юклатилди.

Агарда хорижий мамлакатлар тажрибасига назар ташласак, дунёнинг баъзи давлатларида шунга ўхшаш маслаҳат органлари мавжудлигини кузатиш мумкин. Масалан, Францияда Иқтисодий, Ижтимоий ва Экологик Кенгаш (CESE) мавжуд

бўлиб, у парламент ва ҳукуматга ижтимоий-сиёсий жараёнларни ривожлантириш бўйича маслаҳат-консультатив хизмат кўрсатади[5].

Россияда Жамоатчилик палатаси фуқароларнинг давлат ташкилотлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари билан ўзаро муносабатларини амалга ошириш учун фуқароларнинг эҳтиёжлари ва манфаатларини ҳисобга олиш, давлат сиёсатини шакллантириш ва амалга оширишда уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш мақсадида тузилган. Финляндияда Фуқаролик жамияти сиёсати бўйича маслаҳат кенгаши мавжуд бўлиб, у демократия ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш билан боғлиқ кўплаб вазифаларни бажариб келади. Германияда парламент ҳузурида, фуқаролик жамиятининг муҳим элементи бўлган давлат ва жамият ҳаётидаги фуқаролик фаоллиги масалалари билан шуғулланадиган Анкет-Комиссия (Enquete-Kommission) фаолият олиб боради. 2019 йилда Қозоғистонда турли сиёсий партиялар ва жамоат бирлашмалари, нодавлат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, инсон ҳуқуқлари фаоллари ва етакчи экспертларни жамлаган Жамоатчилик ишончи миллий кенгаши тузилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатаси ҳуқуқий-демократик давлат ва эркин фуқаролик жамиятини шакллантиришимизда муҳим институт бўлиб хизмат қилади. Дарҳақиқат, давлат ҳокимияти органларининг самарали фаолият юритиши, пировардида, мамлакатнинг жадал тараққий этишида жамоатчилик назорати омилининг ўрни беқиёс. Ўзбекистон Республикаси Жамоатчилик палатасининг Президент ҳузурида мутлақо янги институт сифатида ташкил этилишидан кўзланган мақсад ҳам, фуқаро – жамоат ташкилотлари – давлат бирлигини мустаҳкамлаш орқали халқнинг ҳокимиятдан, ҳокимиятнинг халқдан узоқлашишининг олдини олиш, Конституциямизда белгиланган халқ ҳокимиятчилиги принципини амалда рўёбга чиқаришга қаратилган, – дея таъкидлайди Э.Туляков[6], – мухтасар айтганда, мамлакатимизда фуқаролик жамиятининг изчил ривожини таъминлаш, жамият ва давлат ишларини бошқаришда аҳоли вакиллари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳамда фуқаролик жамияти бошқа институтларининг нуфузи ва ролини оширишда мутлақо янги институт бўлган Жамоатчилик палатасининг роли устувор аҳамият касб этади.

Шунинг билан бирга, айрим жиҳатларга эътибор қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз. Масалан, Фармонга биноан Жамоатчилик палатаси аъзолари жами 50 кишидан иборат бўлади. Шулардан 18 нафари Президент томонидан тайинланади, 14 аъзо минтақавий жамоат палаталари раислари ҳисобланишади, фақатгина қолган 18 нафар аъзолар турли жамоат ташкилотлари вакилларидан сайланиши белгиланган. Ушбу жараёнда фуқаролик жамияти ва демократиянинг муҳим элементи – сайлов принципи ҳисобга олинмаган. Бизнинг фикримизча, Жамоатчилик палатасининг барча аъзолари сайланиши лозим. Шундагина, у том маънодаги мустақил, жамоатчилик институтига айлана олади.

Алоҳида таъкидлаш керакки, Жамоатчилик палатаси чинакам мустақил бўлиши ҳамда ҳукумат ва давлат органлари томонидан амалга оширилаётган ишларга ўзига хос «кўзгу» вазифасини ўташи лозим. Келгусида эса мазкур Жамоатчилик палатасининг мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги роли ва аҳамияти муқаррар равишда ўсиб боради. COVID-19 ва унинг оқибатлари билан боғлиқ ҳозирги ва яқинлашиб келаётган инқирозли ҳодисалар шароитида давлат ва жамият ўртасидаги хавфли тўқнашувларнинг олдини олиш – унинг асосий вазифаси бўлиши лозим деб ҳисоблаймиз.

Шунингдек, кучли фуқаролик жамиятини мамлакатда инсон ҳуқуқлари, эркинлиги ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилмасдан туриб тасаввур қила олмаймиз. Айнан шу мақсадда мамлакатимизда яшайдиган ҳар бир инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари, манфаатлари амалга ошириш тизимини янада такомиллаштириш, юртимиз тараққиётига ҳизмат қиладиган бир қатор дастурларнинг ижросини таъминлаш мақсадида 2020 йилнинг 22 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги[7] Фармони қабул қилинди.

Бугунги кунга келиб, Ўзбекистон инсон ҳуқуқлари бўйича 80 дан ортиқ халқаро ҳужжатларга, жумладан, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 6 та асосий шартномаси ва 4 та факультатив протоколига қўшилган бўлиб, уларнинг амалга оширилиши юзасидан БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгаши ва шартномавий қўмиталарига мунтазам равишда миллий маърузаларни тақдим этиб келмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини таъминлаш ва ушбу соҳадаги ишларни янада такомиллаштириш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар қизғин муҳокама қилинмоқда. Давлат ташкилотлари билан бир қаторда, фуқаролик жамияти институтлари фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишда муҳим роль ўйнайди, хусусан, улар жойлардаги мавжуд муаммоларни аниқлаб, уларни самарали ва мақсадли ҳал этишга ҳисса қўшишиб келмоқда..

– Ўзбекистонда бўлаётган воқеалар жуда муҳимдир, - дейди "Human Rights Watch" халқаро ташкилотининг Марказий Осиё офиси директори С.Свердлов. – Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари соҳасида изчил қадамлар қўйилмоқда, хусусан, оммавий ахборот воситаларида сўз эркинлиги учун шароитлар яратилмоқда, суд тизимида ислоҳотлар амалга оширилмоқда, фуқароларнинг давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларига самарали муносабати йўлга қўйилган. Биз ушбу янги босқичга кўмаклашишга ва ҳамкорликка тайёрмиз[8].

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегиясида қонун устуворлигини, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашга устувор аҳамият берилишини алоҳида таъкидлаш лозим. Шунингдек, бугунги кунда оммавий ахборот воситалари ижтимоий ҳаётимизнинг барча соҳалари, жумладан, ННТ фаолиятини ёритишда

тутган ўрнини ҳам таъкидлаш жоиз. Ўзбекистондаги фуқаролик институтлари ва инсон ҳуқуқлари ҳақида жамоатчиликнинг хабардорлигини ошириш ОАВлари олдида турган асосий вазифалардан бири дейишимиз мумкин.

Шунингдек, одам савдосига қарши курашда фуқаролик жамияти институтларининг иштирокини кучайтириш, аҳолини, айниқса, хотин-қизларни тадбиркорликка, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва соғлиқни сақлашга жалб қилиш орқали бандлигини таъминлашга кўмаклашиш масалаларида нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларининг роли тобора ошиб бормоқда.

Лекин, шунинг билан бирга, мамлакатимизда ҳали-ҳамон инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш борасида муаммолар мавжуд. Булар, гендер тенглигини таъминлаш, фуқароларни меҳнат ҳуқуқларини кафолатлаш, фуқароларимизнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, ёшлар ҳуқуқларини кафолатлаш каби соҳаларда олдимизда турган вазифалар кўп. Бу нафақат Ўзбекистоннинг ички сиёсатидаги ижтимоий барқарорлик ёки ҳуқуқий тартиботни, балки халқаро муносабатлар жараёнида мамлакатимизнинг ижобий имиджга эга бўлишида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шу боисдан 2020 йилнинг 2 июнида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида"ги Фармони мазкур соҳада муҳим асос бўлиб хизмат қилади.

Унга кўра, мамлакатимизнинг инвестициявий жозибадорлиги ва ҳалқаро майдондаги имиджини мустаҳкамлаш,давлат органлари ва ташкилотларида ҳалқаро рейтинг ва индекслар билан ишлашнинг янги механизмларини жорий қилиш,шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларини амалга ошириш мақсадида бир қанча вазифалар белгилаб олинди. Жумладан, мамлакатда инсон ҳуқуқлари ҳимоясини кафолатлаш, аҳоли турмушдаражасини ошириш, иқтисодий фаолиятда эркинликни таъминлаш, суд-ҳуқуқ соҳасидаги моддий ва процессуал нормаларини такомиллаштиришга қаратилган ислоҳотларни чуқурлаштириш, ижтимоий-сиёсий ва социол-иқтисодий эркинликларни таъминлаш каби бир қанча вазифалар белгилаб берилган[9]. Шунинг билан бирга, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий-ҳуқуқий тараққиёт даражасини тизимли таҳлил қилиб бориш, турли соҳаларда амалга оширилаётган туб ўзгаришларнинг Ўзбекистон Республикаси учун устувор бўлган ҳалқаро рейтинг ва индексларда мамлакатнинг ўрнини яхшилаш мақсадларига хизмат қилишни таъминлаш, мазкур йўналишдаги ишларнинг самарадорлигига тўсиқ бўлаётган муаммоларни бартараф этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар белгиланди.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифалар қаторида, бевосита фуқаролик жамияти

институтларини ривожлантириш, уларнинг ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш, шу жумладан, жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг замонавий шаклларини ривожлантириш, ижтимоий шерикликнинг самарадорлигини таъминлашга эътибор берилган.

Мамлакатимизда турли ННТ ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари роли ошиб бораётганини қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Жумладан, 2019 йил 4 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий соҳадаги ислоҳотлар устидан жамоатчилик назорати самарадорлигини, шунингдек, фуқароларнинг демократик ўзгартиришлардаги фаоллигини оширишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди. Унга кўра, бевосита илғор хорижий тажрибани ўрганиш ва мустақиллик йилларида шаклланган миллий амалиёт асосида нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги қонунчиликни янада такомиллаштириш ва тизимлаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги кодекси лойиҳасини тайёрлаш бўйича вазифалар белгилаб берилди.

Бугунги кунда эса мазкур кодекс лойиҳаси давлат ва жамоат ташкилотлари, етакчи олим ва экспертлар ҳамда кенг жамоатчилик томонидан муҳокамадан ўтказилмоқда. Кодекс юзасидан фикр ва таклифларни умумлаштириш, бу борадаги ишларни таҳлил қилиш ҳамда соҳада мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни янада такомиллаштириш ва ихчамлаштириш мақсадида Жамоатчилик палатаси, “Юксалиш” умуммиллий ҳаракати, Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотлари Миллий ассоциацияси ҳамкорлигида барча ҳудудларда тадбир ва давра суҳбатлари ўтказиш орқали таклифлар йиғилмоқда.

Жамоатчилик муҳокамасига қўйилган мазкур кодекс лойиҳасига кўра ННТларни тузиш ва фаолият юргизишлари учун қўшимча ижтимоий, иқтисодий, ташкилий ва институционал асослар яратилмоқда. Жумладан, республика, вилоятлараро ННТларни давлат рўйхатидан ўтказиш учун ундириладиган давлат божи ставкалари БҲМнинг 4 бараваридан 3 бараваригача; вилоят ННТлари учун – БҲМнинг 2 бараваридан 1 бараваригача пасайтирилади. Фаолиятини туман (шаҳар), шаҳарча, қишлоқ ва овул ҳудудида олиб борадиган ННТни давлат рўйхатдан ўтказиш учун давлат божи ставкаси БҲМнинг 50 фоизи миқдорида белгиланмоқда.

Шунингдек, ННТлар раҳбарлари ва фаоллари учун Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси ва етакчи олий ўқув юртларида қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш курслари ташкил этилмоқда.

Охирги йилларда мамлакатимизда фуқаролик жамиятини ривожлантириш соҳасида жамоатчилик назорати самарадорлиги ҳамда фуқароларнинг демократик ўзгартиришлардаги фаоллигини ошириш бўйича сезиларли ислоҳотлар амалга

оширилаётгани алоҳида эътироф этилди. Бугунги кунда республикада турли соҳаларда ва турли даражадаги 10 минг 462 дан ортиқ нодавлат нотижорат ташкилоти, 2 минг 200 дан ортиқ диний ташкилот ва 2000 га яқин ОАВ фаолият кўрсатиб келмоқда.

Ҳозирда фуқаролик жамияти институтлари давлат органларининг шунчаки тенг ҳамкори эмас, балки уларнинг устидан назорат ҳам қилмоқда. Албатта, бундай назорат фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этишга оид конституциявий ҳуқуқларини рўёбга чиқаришга, давлат органлари фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлашга, улар мансабдор шахсларининг жамият олдидаги масъулиятини оширишга қаратилгандир[10].

Шу билан бирга, бугунги кунда Ўзбекистонда ННТ ва умуман, фуқаролик жамиятини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган бир қанча муаммолар ҳам мавжуд. Жумладан:

биринчидан, ижтимоий-сиёсий фанлар назариясига кўра, фуқаролик жамияти ўзининг коммуникациялари, давлатнинг иқтисодий ва сиёсий соҳаларига тегишли тамойиллардан фарқ қиладиган ўзига хос қонуниятларга асосланади. Ўзбекистоннинг фуқаролик жамияти қурилиши борасидаги модели кўп жиҳатдан патерналистик характерга эга. Яъни айнан давлат (ҳокимият) бу жараённи бошқаради, жамиятда ижтимоий фаолликни каналлаштиради, уни турли ННТлар формати орқали ижтимоий йўналтирилган ҳаракатга трансформациясини амалга ошириб келади. Том маънодаги фуқаролик жамияти эса қуйидан (социумнинг ўзидан) ва спонтан шаклда пайдо бўлиши лозим;

иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги қарорига кўра, республикамизнинг барча худудларида "Нодавлат нотижорат ташкилотлари уйлари" ташкил этилиши ва ННТларга ижара тўловисиз хоналар ажратилиши белгиланган эди. Бугнги кунга келиб деярли ҳамма вилоятларда ННТ уйлари ташкил этилди. Шундай бўлсада, ушбу ташкилотлар фаолиятини амалга ошириш учун зарур бўлган моддий-техник базани замонавий асосда янгилаш ва ижтимоий аҳамиятга эга бўлган ННТларга махсус жойларнинг етишмовчилиги долзарб бўлиб қолмоқда;

учинчидан, ННТ фаолиятини ривожлантириш долзарб масала бўлиб қолмоқда. Ҳозирда ННТларнинг кўпчилиги республика миқёсида ташкил этилмоқда. Туманлар, овуллар, чекка ҳудудларда ННТлар деярли ташкил этилмаяпти. Ваҳоланки, бизда асосий муаммолар айнан ҳудудларда, туманларда кўпроқ учрайди. Бу борада ҳудудларда ННТлар фаолиятини ривожлантиришга кўпроқ эътибор қаратиш лозим;

тўртинчидан, соҳадаги муаммолардан яна бири – бу нодавлат нотижорат ташкилотларини маҳаллий бюджетлар ҳисобидан қўллаб-қувватлаш тизимининг йўлга қўйилмагани эди. Жумладан, 2014 йилда қабул қилинган "Ижтимоий шериклик

тўғрисида”ги Қонунда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини қўллаб-қувватлаш учун маҳаллий бюджетлардан маблағ ажратилиши мумкинлиги белгиланган. Бироқ, Бюджет кодексининг 71-72-моддаларида маҳаллий бюджетларнинг харажатлари кўрсатилган бўлиб, унда нодавлат нотижорат ташкилотларини қўллаб-қувватлаш харажатлари назарда тутилмаган.

Маълумки, 2020 йил “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”даги Давлат дастурининг 36-бандида Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг ўрта ва узоқ муддатли истиқболга мўлжалланган стратегиясини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш бўйича вазифалар белгиланган эди. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан имзоланган “2021-2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармон ҳамда “Нодавлат нотижорат ташкилотларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, уларнинг фаолияти эркинлиги, ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилинишини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори билан Давлат дастурида назарда тутилган вазифалар ижроси таъминланиб, нодавлат нотижорат ташкилотлар фаолиятини янги босқичга олиб чиқувчи муҳим режалар белгилаб берилди.

Шулардан келиб чиқиб, Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларини истиқболда янада ривожлантириш бўйича айрим фикр-мулоҳазаларни билдириш лозим. Жумладан:

биринчидан, турли ННТ ва фуқаролик жамияти институтларининг эркинлигини таъминлаш, уларнинг ҳукумат ва давлат органлари билан горизантал ва вертикал муносабатлардаги ижтимоий ҳамкорликка киришиши ҳамда самарали жамоатчилик назоратини амалга ошириш бўйича реал вазифаларни амалга ошириш лозим;

иккинчидан, яқин ва узоқ истиқболда ННТларнинг давлат ва жамият ҳаётидаги ижтимоий-сиёсий аҳамияти тобора ошиб боради. Мамлакатдаги турли ижтимоий муаммолар, инқирозли ҳолатларда ва унинг оқибатларини юмшатишда турли жамоат ташкилотларининг асосий иштироки кучайиши мақсадга мувофиқ бўлади;

учинчидан, глобал иқлим ўзгаришлари ва минтақавий экологик муаммоларнинг кескинлашувининг салбий оқибатларни юмшатиш ҳамда унинг атроф муҳитга, инсон соғлиқига таъсирини камайтириш масалалари билан боғлиқ бўлган турли иннавацион лойҳалар, ҳаракат дастурлари ва амалий чора-тадбирларни кўриши ушбу йўналишдаги ихтисослашган ННТларнинг асосий йўналишига айланиши лозим.

тўртинчидан, давлат ташкилотлари билан бирга турли ННТлар мамлакатимизда фуқаролик жамияти ҳолати ва ривожланиш тенденцияларини доимий равишда тадқиқ этиб борадиган, замонавий шаклдаги “ақл марказлари”ни яратиш вақти етиб келди. Мазкур марказларнинг асосий вазифалари бўлиб эса, фуқаролик жамиятининг

қонуний, ижтимоий-сиёсий ва институционал асосларини илмий-амалий жиҳатдан тадқиқ этиш ҳамда стратегик йўналишларни ишлаб чиқишдан иборат бўлиши даркор.

Адабиётлар

1. Абдукаримов Г., Холова Э., Мавлонов Ж., Пармонов Ф., Сеитов. А Фуқаролик жамияти институтлари салоҳиятини мустаҳкамлаш, жамиятнинг ҳуқуқий маданияти ва ижтимоий фаолигини оширишга оид Ўзбекистон тажрибаси. Ўқув қўлланма. –Т.: "Fan va texnologiya", 2017. –184 б.

2. https://lex.uz/ Миллий қонунчилик базаси.

3. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. [Электрон манба]:www.UzA.uz (мурожат қилинган сана 16.04.2020)

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида"ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.04.2020 й., 06/20/5980/0450-сон.

5. Ёқубов Ш. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш монография. – Т.: 2018.–206 б.

6. Элдор Туляков. Жамоатчилик палатаси: янги институт, янги имкониятлар: [Электрон манба]:https://strategy.uz/index.php?news=913.

7. https://lex.uz/ Миллий қонунчилик базаси.

8. Приоритет — права и интересы человека. [Электрон манба]: http://www.jahonnews.uz/ru/obshchestvo/158/38606/.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида"ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.06.2020 й., 06/20/6003/0708-сон.

10. Ширинов Ж. Ислоҳотларни олиб боришда фуқаролик жамияти институтларининг роли ошмоқда. http://parliament.gov.uz/ - Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг расмий веб-сайти.

SO`Z-GAP ATAMASI VA UNING TIL TIZIMIDAGI O'RNI

Xojiyeva Muxlisa Abdumansur qizi
Alfraganus universiteti
2-kurs talabasi
email:muxlisaxojiyeva26@gmail.com
Ilmiy rahbar: Saparniyozova M.

Annotatsiya: Hozirgi kunda nafaqat tillarni o`rganish, ularni tahlil qilish, tadqiqotlar olib boorish barcha uchun qiziq mashg`ulot hisoblanadi. Ushbu maqolamizda, so`z-gap atamasi haqida, so`z-gap to`plamini ajratish tamoyillari, so`z-gap tasnifi va so`z-gaplarni morfologiya va sintaksisda o`rganilishini, u yerdagi munozarali fikrlarini tahlil qilib o`rgandik.

**Kalit so`zlar:** Kommunikativ, polisemiya, modal so`z, morfologiya, sintaksis vazifadoshlik, funksionallik, WPm.

KIRISH.

Bizga ma'lumki, so`z-gaplar xususida maktab darsliklarida "Bir so`z "qotib qolgan" birikma shaklida bo`lib, boshqa so`z bilan kengayish imkoniyatiga ega bo`lmagan gap **so`z-gap** deyiladi. So`z-gap tasdiq, inkor, so`roq, taajjub, his-hayajon kabi ma'nolarni ifoda etib, ular matn bilan bog`liq bo`ladi. So`z-gap, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarini ifoda etgani uchun ham ko`proq diologik va ba'zan monologiik nutqqa xosdir",- ta'rifi keltirib o`tiladi.[1. 69-bet]

O`zbek tilida shunday muloqot madaniyati mavjudki, so`zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunativ jarayon bir-birini nutqi tugallanmasdan tushunishga yoki gapning to`liq mazmuni bir so`z bilan ifodalashga undaydi. Kishilar nutqini yengillashtirish, nutqiy

ixchamlikni ta'minlash kabi xususiyatlarni o`zida mujassam etgan mana shunday gap turi-bu so`z-gap.[2.] So`z-gap to`plamini ajratish tamoyillari bo`yicha Ra'no Sayfullayeva va boshqalar o`zbek tilshunosligida so`z-gapning mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tavsifi, qo`llanish xususiyati empirik asosda yetarlicha o`rganilgan. Substansial yondashuvda gapning eng kishik qurilish qolipi[Wpm] sifatida e'tirof etilgach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo`lgan so`z-gapga ham "lison-nutq' tamoyili asosida yondashish zarurati paydo bo`ldi va har bir gapning o`z qolipi mavjud bo`lgani kabi, so`z-gapning ham o`ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bo`lishi shrtligi e'tirof etildi. So`z-gap umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan so`zlarning alohida belgilari mavjud-ki,

Ular shu belgi bilan mustaqil, yordamchi so`zdan, shuningdek, yoxud qo`shma gapdan farq qiladi. Bular quyidagilar: 1) mustaqil holda gap bo`la olish; 2) gap tarkibida shu gapning biror bo`lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik; 3) o`ziga xos g`ayriodddiy ma'noga ega bo`lish; 4) bog`lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs-son shakllariga ega emaslik.

So`z-gap sirasiga shu to`rt asosiy belgi bilan bir majmuaga birlashuvchi birliklar kiradi (bu tipdagi birliklar kirish so`z vazifasida ham keladi, lekin ularning substansial belgisi- so`z-gap bo`lib kelish).[3.] Bu yerda keltirilgan fikr biroz munozarali. Kirish so`z ba'zan so`z-gap bo`ladi,- deyilgan. Aslida kirish so`zlarning ham o`z sintaktk vazifasi bor. Tipik sintaktik vazifasi. Masalan: *Bugun kinoga boramizmi?* – ***Balki.***

So`z-gap tasnifi. So`z-gap o`z ichida bir necha ma;noviy guruhga ajraladi: 1. Modal. 2. Undov. 3. TAsdiq-inkor. 4. Taklif-ishora. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda biz so`z-gaplarni modallar, undovlar, tasdiq-inkor so`zlar va taklif-ishora so`zlardan tashkil topadi,- deyimiz mumkin. Xo`sh, ular gap tarkibida qanday ko`rinishga ega bo`lishlari mumkin? *Kampirning* ***dodiga*** *odamlar tez to`plandi.* Bu gapda so`z-gap ***dodiga*** bo`lib, u so`z-gapning udov ko`rinishidir. ***Aftidan,*** *bugun havo issiq bo`ladi.* Bu gapda esa, ***aftidan*** so`zi so`z-gap bo`lib, so`z-gap, modal so`z, vazifadosh modal so`z, chama-taxmin ma'noda. *Bugun kinoga boramizmi?* –***Albatta.*** Bu gapda ***albatta*** so`zi so`z-gapning tasdiq-inkor ko`rishiga misol bo`ladi. ***Qani,*** *ketdik darsga.* Bu gapdagi qani so`zi so`z-gapning taklif-ishora ko`rinishidir.

Ko`pgina tilshunos olimlarimiz so`z-gapni polisemiya deyishadi. Terminologiya Polisemiya bo`lish ijobiy hodisa emas. O`zbek tilida polisemiya – bu bir so`zning bir necha turli ma'nolarni ifodalashidir. Polisemiya so`zning semantik ko`p tomonliligi tufayli yuzaga keladi. Bu hodisa, bir so`zning turli kontekslarda turlicha ma'nolarni anglashi natijasida paydo bo`ladi.

Tereminologiyada esa, bu hodisa ijjobiy hodisa hisoblanmaydi. Chunki, unda termin aniq bo`lishi muhim o`rin egallaydi.

So`z-gaplarni morfologiya va sintaksisda quyidagi ko`rinishda bo`lishadi:

So`z-gaplar

Morfologiyada	Sintaksisda
So`z-gap	1. Bo`laklarga ajralmaydigan gaplar.
So`z turkumi	2. Egasiz gap. (so`z-gap, atov gap)
Gap	Gap
	Sintakik vazifa

So`z-gaplarda ham munozarali fikrlar mavjud. Masalan, sof morfologik yondashuv bor. U mana bu turlarga bo`linadi (morfologiya- so`z-gap, so`z turkumi, gap) deyilishi bir muncha munozara chunki, bu yerda sintaktik planda yondashgan holda bo`ladi. Ya'ni to`liq WPmlashgan so`z-gaplashgan to`la-to`kis semantik funksional xususiyatlari bilan har-xil guruhning markaziy leksemalariga juda yaqin turadi, lekin o`z aloqasini boshqa so`z turkumlaridanto`la-to`kis uzmagan bo`ladi degan fikrni aytadi lekin bu yerda WPm bilamiz bu gapning eng kichik qurilish qolipi. Ya`ni u sintaktik mohiyat. Uni boshqa turkumdan ananaviy ravishda fuksional deb kelgan vazifadoshdeb kelgan termini WPmlashgan deb beradi, so`z-gaplashgan. Uni, balki, funksional gaplar yoki vazifadosh gaplar deb berilganda o`quvchilar trushunishi uchun qulayroq bo`lgan bo`lar edi. Chunki WPm sintaktik mohiyat bo`lgani sababli o`quvchida shubha uyg`otadi. So`z-gap har doim WPm bo`ladi degani emas-ku. U boshqa funksiyalarda ham kelishi mumkin. Shuning uchun WPmlashgan so`zini vazifadosh so`z-gaplar desa, an'anaviy tizim sifatida, hamma tomondan qabul qilingan

termi sifatida anglash ossonroq bo`lar edi. Mualliflarning Wpmlashgan, WPmlashayotgan va Wpmsimon degani vazifadosh, funksionalligi chunki, fuksionallashuv shunday jarayonki, o`sha funksionallashish jarayonida bo`lishi mumkin, fuksionallashib butkul fuknsionallashib ketgan bo`ladi.

Yoki unga o`xshash bo`ladi. Shuning uchun buni vazifadosh yoki funksional deyish maqsadga muvofiq. Boshqa turkumlarda ham vazifadoshik bor, masalan, yuklamada, bog`lovchida, fe'lda. Ko`ryabsizmi ya'ni vazifadoshlik deb boshq aturkumlarga umum qabul qilingan termin sifatida anglash bir muncha ossonroq bo`ladi. Bu yerda sintaktik qoidani qo`yib, morfologik tahlil qilyabdi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov, Muhabbat Abduraimova, Ra'no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev [va boshqalar]. Maktab darsligi 8-sinf T.: 2019. 69-71-b.
2. https://in-academy.uz Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi 4-bet.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar Hozirgi o`zbek adabiy tili – T.:2009 278-282-b.

O'ZBEK, QOZOQ VA TURK XALQ TOPISHMOQLARINING QIYOSIY TAHLILI

Muyassar SAPARNIYAZOVA,

Filologiya fanlari doktori (DSc), Professor.

Muhammadsodiq SHODMONOV,

Alfraganus universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'zbek, qozoq va turk xalqlarining topishmoqlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari, mazmun, shakl va badiiy ifoda vositalaridagi umumiylik va o'ziga xosliklari tahlil etilgan

Abstarct.

This article presents a comparative analysis of the riddles of the Uzbek, Kazakh, and Turkish peoples, focusing on their similarities and differences, as well as the common and distinctive features in their content, structure, and artistic expression.

Kalit so'zlar: *topishmoq, turkiy xalqlar, o'zbek, qozoq, turk, qiyosiy tahlil, xalq og'zaki ijodi*

Key words: *Riddle, Turkic peoples, Uzbek, Kazakh, Turkish, Comparative analysis, Oral folklore*

Kirish.

Topishmoq - bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi Topishmoqlar bir necha so'zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo'lishi mumkin. Ko'p topishmoqlar qofiya holida keladi.[1] Xalq topishmoqlari

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Topishmoq

folklorning eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib hozirgacha o‘zining ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda.[2]

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi. Ba’zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e’tibor bering. “Top” so‘zining talaffuz etilishidanoq o‘yla, axtar, solishtir, izla ma’nolari yetakchilik qiladi. Unga “ish” qo‘shimchasi qo‘shilganda, vazifa aniqlashadi. “-moq” harakat nomi qo‘shimchasidan keyin “qo'lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi. Mahmud Koshg‘ariy topishmoqni qadimda “tabzug‘” deyishganini qayd etadi. “Tabzug‘uq tabuzdim” (Men undan bir topishmoqni so'radim) jumlasini keltiradi. Bu ma’lumot topishmoqning tarixi qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi.[3]

Z.Xusainova o‘zining “O‘zbek topishmoqlari” kitobida o‘zbek topishmoqlarining XIX asrga qadar o‘rganilmagani va to‘plam holiga keltirilmaganini va o‘rganish va to‘plam holiga keltirish XIX asrdan boshlanganligini qayd etadi[4]

Omonulla Madayev o‘zining “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” nomli o‘quv qo‘llanmasida quyidagilarni keltiradi: “Topishmoqning paydo bo‘lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma’lumotlar yo‘q. Ayrim olimlar uning qadimiy ekanini qayd qiladilar. Ammo maqollar namunalari ko'plab keltirilgan “Devonu lug'otit turk” asarida “tabzug‘” so‘zi uchragani holda topishmoq matni yo‘q. Topishmoq hajman, shaklan maqolga o‘xshaganligi uchun bu ikki janrning vujudga kelish vaqti ham bir xil bo‘lishi kerak, degan taxmin bildirilgan. Biz ham shu fikrga qo‘shilamiz”[5]- deb o‘tadi

Prof. Dr. Shukru Elchin o‘zining “Türk bilmeceleri” (Turk topishmoqlari) asarida turkiy qardosh xalqlarida topishmoqning nomlanishi haqida ma’lumot beradi: Doğu ve Kuzey Türkleri ile Azeri sahası aynı manaya gelen tabmak filini ve bu kökten türeyen "tabzuğ", "tabmaca" kelimelerini kullanmaktadırlar. Ayrıca Türkmenlerde "matal"

[2] Z.Xusainova “O‘zbek topishmoqlari” T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti 1996 B. 2
[3] Omonulla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” “Mumtoz so‘z” nashriyoti T – 2010 B. 77
[4] Z.Xusainova “O‘zbek topishmoqlari” O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti T – 1996 B. 6
[5] Omonulla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” “Mumtoz so‘z” nashriyoti T – 2010 B. 80

Kırgızlar, Kazaklar, Karakalpaklar arasında "cumbak", Kazanlilar'da "tabişmak" yanında "cumbak", Başkirtlarda ise yine bu kökten gelen "yumak" sözü yaygındır. Anadolu'nun bözi köy ve kasabalarında bilmaca umumî ismi yanında masal, mesel, matal, hikâye, metel, bulmaca, söz, dele, gıcık, gazelleme ... gibi kelimeler yasamaktadir[6] Tarjimasi: Sharqiy va shimoliy turklar hamda ozarbayjonlar bir xil ma’noga ega bo‘lgan tabmak fe’li va shu o‘zakdan olingan “tabzuğ” va “tabmaca” so‘zlarini ishlatadilar. Bundan tashqari, turkmanlarda “matal” so‘zi, qirg‘iz, qozoq va qoraqalpoqlarda “cumbak”, qozonlilarda “tabishmak” yonidagi “cumbak” va shu o‘zakdan kelib chiqqan “yumak” so‘zi keng tarqalgan. boshqirdlar. Anadoluning ko‘pgina qishloq va shaharlarida ridaca umumiy nomidan tashqari ertak, masal, matal, hikoya, metel, boshqotirma, so‘z, dele, gıcık, g‘azallama... kabi so‘zlar ham qo‘llaniladi.

Qozoq xalq adabiyotining yorqin vakili Muxtar Avezov Qozoq xalq topishmoqlari haqida quyidagilarni keltiradi: Мұхтар Әуезов қазақ халқы жұмбақтарының бүгінгі күнге дейін өз маңызын жоғалтпағанын атап өтеді. Ол жұмбақтардың Октябрь революциясынан кейін де жаңа мазмұнда, жаңа өмір шындығын бейнелеп, халық шығармашылығының дамуына зор үлес қосқанын айтады.

Ғалымның пікірінше, қазақ жұмбақтарының өлең түрінде келуі — олардың поэзиялық табиғатын, эстетикалық күшін көрсететін ерекше құбылыс. Сондықтан бұл құбылысты қазақ халқының көркем ойлау жүйесі мен лингвистикалық дүниетанымын зерттеуде маңызды фактор ретінде қарастыру қажет.[7]

Muxtor Avezov qozoq xalq topishmoqlari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ta’kidlaydi. U, shuningdek, bu topishmoqlar Oktyabr inqilobidan keyin ham yangi mazmun bilan boyiganini, yangi hayot haqiqatini aks ettirganini va xalq ijodining rivojiga katta hissa qo‘shganini qayd etadi.

Olimning fikricha, qozoq topishmoqlarining she’riy shaklda kelishi — ularning poetik tabiati va estetik kuchini ifodalaydigan o‘ziga xos hodisadir. Shu sababli bu hodisani qozoq

[6] Elçin Şükrü. Türk bilmeceleri. Kültür bakanlığı yayınları. Ankara, 1989. S. 1.
[7] М. Әуезов. Қазақ халық әдебиеті. Жұмбақтар туралы

xalqining badiiy tafakkur tizimi va lisoniy dunyoqarashini o‘rganishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqish lozim.

Topishmoqlaming quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.

2. Shaklan she'riy, nasriy ko‘rinishga ega.

3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo‘yiladi.

4. Mazmunida hayvonot, o‘simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da’vat etiladi.

5. Topilishi lozim bo'lgan narsa, ko'pincha, bitta, ba’zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo'ladi.

6. Topishmoqlarda qo'llangan asosiy badiiy san’at istiora (metafora) hisoblanadi. Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san’atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog'lanadi. [8]

Qiyosiy tahlil — borliqdagi hodisalarni bilish va o‘zgartirish bo‘yicha metodologiya bosqichlaridan biridir. Qiyoslash metodologiyasi ma’lum bir makon va zamonda mavjud turli jarayonlarni qiyoslash uchun asoslarni shakllantiradi[9] Har qanday qiyosiy tadqiqotda adabiy hodisalarning mushtarak va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Bu esa adabiyotlararo umu miy nazariy qonuniyatlarning yuzaga kelishida asos bo‘ lib xizmat qiladi.[10] Quyida o‘zbek, qozoq va turk topishmoqlarining mushtarak va o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

[8] T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov “O‘zbek folklori” (darslik) T 2020 B. 205-206
[9] Gulnoz Iskandarovna XALLIEVA Qiyosiy tahlil metodologiyasi Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 1 (42),180-189 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)
[10] Gulnoz Xalliyeva Qiyosiy adabiyotshunoslik “Akademnashr” nashriyoti, T – 2020 B – 3

Har bir xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalarida ushbu xalqning turmush tarzi, madaniyati, dini, axloq-odobi va urf-odatlari yaqqol ko‘rinib turadi. Buni topishmoqlarda ham ko‘rish mumkin:

Zarga topilmas, zo‘rg‘a topilmas (vaqt)

Ya’ni bunda vaqtning qadri naqadar ulug‘ ekani uni kishi zarga ham oltin-u javoharlarga ham kuch-u qudrat evaziga ham topa olmasligi ifoda etimoqda. Ushbu topishmoqning muallifi o‘zbek xalqi farzandi bo‘lgani va shu diyorda kamol topganiga e’tibor qaratilsa, o‘zbek xalqida vaqtga naqadar ahamiyat berilishi va qadrlanishini tushinish mumkin bo‘ladi.

Turk xalqida vaqt haqida topishmoq:

Ne su, ne rüzgar,

Akar gider durmadan,

Ne görülür, ne tutulur.

(Suv emas, shamol emas,

To‘xtamay oqib o‘tadi,

Ko‘rinmaydi, ushlab bo‘lmaydi.)

Cevap (javob): Zaman (Vaqt)

Ushbu turk xalq topishmog‘ida vaqt obrazli vositalar orqali tasvirlanadi. “Suv emas, shamol emas” degan satrlar vaqtning ko‘rinmas, ammo seziladigan mohiyatini ifodalaydi. “To‘xtamasdan oqib o‘tadi” — vaqtning uzluksiz harakatini, “ko‘rinmaydi, ushlab bo‘lmaydi” esa uning qaytmasligini bildiradi.

Bu topishmoq orqali turk xalqi vaqtni inson nazaridan yashirin, ammo hayotning asosiy o‘lchovi sifatida tasvirlaydi. Vaqtning to‘xtovsiz oqimi inson umrining o‘tkinchiligini, hayotning qadri va mazmunini anglash zarurligini eslatadi.

Qardosh xalq qozoq xalqida vaqt haqidagi topishmoq:

Күні бойы ағады, қолмен ұстай алмайсың,

Өтіп кеткенінен аңғармайсың, қайта келмейді.

Kun davomida oqib o‘tadi, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydi,

o‘tib ketganini payqamaysan, qaytib kelmaydi.

Javob: Уақыт (Vaqt)

Ushbu qozoq xalq topishmog‘ida “vaqt” tushunchasi obrazli ifoda vositalari orqali tasvirlangan. “Oqish”, “o‘tish”, “qaytmaslik” kabi so‘zlar orqali vaqtning to‘xtovsiz harakati, uni his qilish, ammo ushlab bo‘lmasligi lisoniy ifoda topgan. Bu yerda “vaqt” inson hayotidagi eng bebaho, ammo eng beqaror hodisa sifatida talqin etiladi. Qozoq xalq tafakkurida vaqt — tabiatdagi eng buyuk kuchlardan biri, inson hayoti, mehnati va taqdirini belgilovchi omil sifatida qaraladi. Bu topishmoqda ham vaqt “oqib o‘tuvchi daryo” sifatida timsollangan; u inson sezgisi orqali idrok etiladi, ammo moddiy shaklda mavjud emas.

Ushbu uch xalqning topishmoqlarida “vaqt” tushunchasi o‘xshash tarzda – harakat, o‘tkinchilik va inson hayotining muhim mezoni sifatida talqin etilgan

Sandiq to‘la pista-bodom,

Ochib ko‘r, bo‘lsang odam.

Xosiyati ko‘p, olam-olam,

Terib ol uni har dam. (Kitob)

Ushbu o‘zbek xalq topishmog‘ida inson zoti uchun kitob mol-dunyodan qadrliroq narsa ekani, inson uni boshqa qiymati bor narsalarga qaraganda ko‘proq qadrlashi lozimligiga urg‘u qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda bunda kitob o‘qishlikka chorlov ham bor, topishmoq tarkibida kitobdan xosiyat olishlikka chaqiriq bor. Xosiyat so‘zi izohiga e’tibor qilinadigan bo‘lsa “ijobiy xususiyat, yaxshi fazilat, xislat” degan ma’nolarni

anglatadi. Bundan anglashiladiki kimda-kim o‘zida ijobiy fazilatlarni hosil qilishni istasa buni kitobdan axtarishi lozimligiga bir da’vatdir

Turk xalqida kitob haqidagi topishmoq:

Yaprağı var, ağaç değil,

Dikilidir, ruba değil,

Konuşur, insan değil. (Kitap)

Tarjimasi Barglari bor, daraxt emas,

Tikilgan, kiyim emas,

Gapiradi, odam emas. (Kitob)

Ushbu turk topishmog‘ida “Barglari bor, daraxt emas” iborasi orqali kitobning bahorda olamni yashillikka burkab insonlarga quvonch bag‘ishlovchi yaproqlar kabi ma’rifat taratishiga ishora qilinmoqda va bu orqali kitobning ma’rifat sarchashmasi ekani ta’kidlanmoqda. “Tikilgan, kiyim emas” jumlasi orqali esa kitobning yana bir o‘ziga xosligi ma’rifat va hikmat shodalarini bir yerda jamlashiga urg‘u qaratilmoqda. “Gapiradi, odam emas” so‘zlari orqali esa kitobning insonni o‘zining hikmatlari ila komillikka chorlashi aks ettirilmoqda.

Qardosh qozoq xalq topishmoqlarida kitob haqida topishmoq:

Тісі жоқ, тілі жоқ,

Бірақ адамға сөйлейді.

Tishi yo‘q, tili yo‘q,

Ammo inson bilan so‘zlashadi.

Javob: Кітап (Kitob)

Ushbu qozoq xalq topishmog‘ida kitob inson tafakkurining, ilm va ma’naviyat manbaining ramzi sifatida tasvirlanadi. “Tishi yo‘q, tili yo‘q, ammo inson bilan so‘zlashadi” degan ifoda orqali kitobning jonli mavjudot emasligi, ammo so‘zlar, bilim va ma’rifat orqali inson ruhiga ta’sir ko‘rsatishi obrazli tarzda ifodalangan. Qozoq xalq tafakkurida kitob — ilm va ziyo manbai, insonni komillikka yetaklovchi kuch sifatida qaraladi. Kitob so‘zlamaydi, biroq uning sahifalarida insoniyat tajribasi, tarix, axloq va donolik mujassamdir. Shu jihatdan bu topishmoq ma’naviy boylik va tafakkur mahsuli sifatida kitobning beqiyos o‘rnini ifodalaydi.

O‘zbek, turk va qozoq xalqlarida kitob bilim, ma’naviyat va komillik timsoli sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga o‘zbek topishmog‘ida kitob “xosiyat manbai” sifatida, turk topishmog‘ida “ma’rifat taratuvchi”, qozoq topishmog‘ida esa “so‘zsiz so‘zlovchi donolik manbai” sifatida yoritilgan. Bu uch yondashuv o‘zaro qiyoslanganda, umumturkiy ma’naviy birlikning ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin

O‘zbek xalqlarida til haqidagi topishmoq:

Aqlga do‘st tutsang, a’lo so‘zlar, Yo‘qsa u suyaksiz balo so‘zlar. (Til)

Bu topishmoqqa nazar solinadigan bo‘lsa, har kimki qayerda bo‘lmasin aql bilan so‘zlasa mazmunli va kerakli so‘zlarni topib gapira oladi. Agar u har qanday mavzuda so‘zlamasin aqlga tayanmasa, gapirgan so‘zi o‘z boshiga balo bo‘lishi tabiiy ekanligi juda chiroyli tasvirlab berilmoqda.

Turk xalqida til haqida topishmoq:

Altı mermer, üstü mermer,

İçinde bir bülbül öter. (Dil) Tarjimasi:

Osti marmar, usti marmar,

Ichida bir bulbul kuylar. (Til)

Bu topishmoqda tishlar marmarga qiyoslanib, ushbu marmarlar ichida bir bulbul kuylaydi deb ijobiy baho berilmoqda. Bulbul xonishi har kimga yoqqani kabi tildan ham

faqat hammani mamnun etadigan kalimalar chiqmog‘i lozimligi ushbu topishmoq misolida juda chiroyli tartibda ifodalab berilgan.

Qozoq xalqida til haqida topishmoq:

Астында ақ маржан,

Ішінде бұлбұл сайрайды.

Ostida oq marjan, ichida bulbul sayraydi. Javob: Тіл — Til

Ushbu qozoq xalq topishmog‘ida til obrazli vositalar orqali tasvirlangan. “Ostida oq marjan” — bu tishlar, “ichida bulbul sayraydi” — bu insonning so‘zlash, nutq chiqarish qobiliyatidir. Bulbulning sayrashi so‘zning go‘zalligi, nutqning musiqiyligi va ma’naviy ta’sirini ifodalaydi.

Bu topishmoqda til insonning eng nozik, ammo eng kuchli quroli sifatida talqin qilinadi. Til — aql, tafakkur va ma’naviyatning ko‘zgusi, insonni hayvondan ajratib turuvchi asosiy belgidir. Qozoq xalq tafakkurida tilga ehtiyotkorlik, to‘g‘rilik va odob bilan yondashish zarurligi ramziy ifoda topgan.

Til haqidagi topishmoqlarda ham barcha xalqlarda nutqning ahamiyati, so‘zning qudrati va aql bilan so‘zlash zarurligi ta’kidlanadi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida aytilgani kabi “So‘z go‘yoki bir durdir, durning doimiy makoni dengiz tubi bo‘lsa, so‘zning muntazam makoni ko‘ngildir”[11]. Alisher Navoiy bobomiz ta’kidlaganlaridek so‘zning muntazam makoni ko‘ngil bo‘lishi kerakligini o‘zbek, qozoq va turk topishmoqlari misolida ham ko‘rdik. Topishmoqlarda ko‘rganimizdek faqatgina bir jumboq topilishi emas balkida har birida ilmga, ma’rifatga, ziyoga, to‘g‘riso‘zlikka va vaqtni zoye qilmaslikka undovchi nasihatomuz fikrlarning borligi bu uch turkiy xalqlarning o‘tmishi va bugunining naqadar umumbashariy ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

[11] Xadjimetova Gulola Alisher Navoiy asarlarida til va nutq masalari Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi 2-jild 1-son (YO‘PA) B - 105

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek, qozoq va turk xalqlari topishmoqlari mazmun, shakl va badiiy ifoda vositalari jihatidan o‘zaro yaqinlikka ega. Har uch xalq topishmoqlari xalq tafakkurining, dunyoqarashining va hayotiy tajribasining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning har birida insonni topqirlikka, aql-idrok bilan fikrlashga undovchi g‘oyalar ilgari suriladi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, o‘zbek topishmoqlarida ma’naviyat va hayot falsafasi chuqurroq ifodalangan bo‘lsa, turk topishmoqlarida obrazlilik va badiiy ramzlar kuchli, qozoq topishmoqlarida esa she’riy ifoda va ohangdorlik ustuvorlik qiladi. Shu orqali har bir xalqning madaniy-estetik tafakkuri o‘ziga xos, ammo umumiy ildizlari jihatidan bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligi ayon bo‘ladi. Demak, topishmoqlar turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy yaqinligini, umumiy ma’naviy qadriyatlarini va tafakkur uyg‘unligini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. Ularning qiyosiy tahlili orqali xalq og‘zaki ijodining boyligi, xalq tafakkurining chuqurligi va turkiy birlikning mustahkamligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elçin Şükrü. Türk bilmeceleri. Kültür bakanlığı yayınları. Ankara, 1989.
2. Gulnoz Iskandarovna XALLIEVA Qiyosiy tahlil metodologiyasi Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 1 (42),180-189 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)
3. Gulnoz Xalliyeva Qiyosiy adabiyotshunoslik “Akademnashr” nashriyoti, T – 2020
4. Omonulla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” “Mumtoz so‘z” nashriyoti T – 2010
5. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov “O‘zbek folklori” (darslik) T 2020
6. Xadjimetova Gulola Alisher Navoiy asarlarida til va nutq masalari Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi 2-jild 1-son (YO‘PA
7. Z.Xusainova “O‘zbek topishmoqlari” T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti 1996
8. М. Әуезов. Қазақ халық әдебиеті. Жұмбақтар туралы
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Topishmoq

TURK TILLARIDA MASHINAVIY TARJIMA VA "O'RTA TURK TILI" KONSEPSIYASINING INTEGRATSIYASI

Dilraboxon AXMEDJANOVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili integrallashgan kursi N3 kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: daxmadjonova@gmail.com

Tel: +998935041999

Annotatsiya

Maqolada Turk tillarida mashinaviy tarjima texnologiyalarining rivojlanish jarayoni va "o'rtacha Turk tili" (averaged Turkic language) konsepsiyasi o'rtasidagi ilmiy bog'liqlik tahlil qilingan. **Mirzahalov va boshqalar (2021)** tomonidan olib borilgan tadqiqotda Turk tillari o'rtasidagi strukturaviy o'xshashliklardan foydalanish mashinaviy tarjima sifatini oshirishga yordam bergani isbotlangan. **Karimov** esa bu lingvistik o'xshashliklarni tarixiy va falsafiy asoslarda tahlil qilib, yagona Turk tili modeli konsepsiyasini ilgari suradi. Maqola texnologik va lingvistik yondashuvlarning integratsiyasi Turk tillari uchun raqamli til modeli yaratish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Turk tillari, mashinaviy tarjima, sun'iy intellekt, lingvistik birlik, o'rtacha Turk tili, integratsiya.

Abstract

This paper explores the interrelation between modern machine translation technologies for Turkic languages and the linguistic concept of the "Averaged Turkic Language." The study by **Mirzakhalov et al. (2021)** demonstrates that utilizing structural and semantic similarities among Turkic languages significantly improves translation quality. In contrast, **Karimov** approaches the same issue from a historical and theoretical perspective, proposing the "Averaged Turkic Language" as a model of linguistic unity. By integrating these two perspectives — the technological (AI-based) and the linguistic-historical — the research highlights the potential for developing a unified digital language model for the Turkic world. This synthesis not only strengthens linguistic and cultural identity but also contributes to the advancement of AI-driven multilingual communication systems.

Keywords:

Turkic languages; machine translation; artificial intelligence; linguistic unity; averaged Turkic language; digital integration.

Kirish

Hozirgi davrda sun'iy intellekt texnologiyalari tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yo'nalishida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Mashinaviy tarjima tizimlari ko'p tilli

muloqotni osonlashtirib, ilmiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda muhim o‘rin egallamoqda. Biroq, mavjud tadqiqotlarning aksariyati ingliz, xitoy yoki ispan kabi ma’lumotga boy tillarga qaratilgan. Shu sababli, **Turk tillari oilasiga mansub o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va ozarbayjon tillarining** mashinaviy tarjimasi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Mirzahalov va boshqalar (2021) tomonidan olib borilgan *“A Large-Scale Study of Machine Translation in Turkic Languages”* nomli tadqiqotda bu muammo amaliy jihatdan hal etilgan. Tadqiqotda yirik hajmdagi parallel korpuslar asosida Turk tillari uchun ko‘p tilli neyron tarjima modellari ishlab chiqilib, ularning samaradorligi tahlil qilingan. Natijalarga ko‘ra, Turk tillari o‘rtasidagi morfologik va semantik o‘xshashlik tarjima sifatini 10–12% ga yaxshilaydi.

Boshqa tomondan, Jalolova **(2023)** o‘zining *“Scientists of Ancient Central Asia Still Relevant in the Modern World: The Idea of the Averaged Turkic Language”* nomli maqolasida professor Karimovning ilmiy ishlari tahlilini ifoda etadi va qadimiy Markaziy Osiyo olimlarining til birligi haqidagi g‘oyalarini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Karimov o ‘z izlanishlarida “o‘rta Turk tili” konsepsiyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, barcha Turk tillarini yagona lingvistik model doirasida birlashtirish, ularning fonetik va grammatik o‘xshashliklarini raqamli shaklda modellashtirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u Mirzahalovning texnologik yondashuvini Karimovning lingvistik konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtiradi va Turk tillari uchun raqamli til modeli yaratish istiqbollarini ilmiy asoslaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi – Turk tillarida mashinaviy tarjima texnologiyalarini “o‘rta Turk tili” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirib, yagona raqamli til modelini yaratish imkoniyatlarini aniqlash.

Vazifalar:

Mirzahalov va boshqalar (2021) tomonidan taklif etilgan mashinaviy tarjima metodologiyasini tahlil qilish.

Karimov (2023) tomonidan ilgari surilgan “o‘rta Turk tili” konsepsiyasining lingvistik asoslarini o‘rganish.

Ikkala yondashuv o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.

Turk tillari uchun integratsiyalashgan sun’iy intellekt modeli yaratish istiqbollarini baholash.

Metodologiya

Tadqiqot **qiyosiy-tahliliy** metod asosida olib borildi. Ma'lumot manbalari sifatida EMNLP 2021 konferensiyasi materiallari va *Times of Central Asia* nashrida chop etilgan maqola ishlatildi.

Texnologik tahlil: Mashinaviy tarjima modellarining samaradorligi (BLEU natijalari) va til juftliklari bo'yicha natijalar o'rganildi.

Lingvistik tahlil: Karimov ilgari surgan "o'rta Turk tili" konsepsiyasidagi fonetik va morfologik umumiylik tahlil qilindi.

Qiyosiy yondashuv: Har ikki tadqiqot metodologiyasi va natijalari bir-biriga taqqoslab, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Natijalar va muhokama

Texnologik natijalar (Mirzahalov va boshqalar, 2021)

Mirzakhalov va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan mashinaviy tarjima modeli 6 ta Turk tili juftliklarida sinovdan o'tkazilgan. Ularning tahliliga ko'ra, o'zbek–turk va qozoq–qirg'iz juftliklarida modelning BLEU ko'rsatkichi o'rtacha **+11,5%** yaxshilangan. Bu natija Turk tillari o'rtasidagi o'xshashliklardan samarali foydalanish imkonini ko'rsatadi.

Lingvistik natijalar (Karimov, 2023)

Karimov tomonidan ilgari surilgan "o'rtacha Turk tili" konsepsiyasi tarixiy va nazariy asosga ega bo'lib, u til birligini "fonetik, morfologik va semantik uyg'unlik" asosida tushuntiradi. Ushbu konsepsiya Turk tillarining umumiy ildizlari asosida yagona til modeli yaratish g'oyasini mustahkamlaydi.

Qiyosiy tahlil

Mezoni	**Mirzahalov et al. (2021)**	**Karimov (2023)**	**Integratsiya imkoniyati**
Yondashuv turi	Empirik, texnologik	Nazariy, lingvistik	Texnolingvistik
Asosiy maqsad	Tarjima sifatini oshirish	Yagona til modeli taklifi	AI asosida til birligi
Ma'lumot turi	Parallel matn korpusi	Lingvistik manbalar	Korpus + nazariy asos
Natija	BLEU ↑ 11,5%	Lingvistik konsepsiya	Raqamli til modeli g'oyasi

Integratsiyalashgan holda, bu ikki yondashuv Turk tillarining texnologik qayta ishlanishini nazariy asos bilan bog'laydi. Shu tariqa "Turkic AI ekotizimi" konsepsiyasi – ya'ni yagona Turk tili modeli – shakllanishi uchun ilmiy poydevor yaratiladi.

Xulosa

Mirzahalov va Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Turk tillarining o'zaro o'xshashliklari nafaqat tarixiy, balki texnologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Mashinaviy tarjima tizimlaridagi muvaffaqiyatlar Karimov ilgari surgan "o'rtacha Turk tili" konsepsiyasini amaliy jihatdan qo'llash imkonini beradi.

Ularning integratsiyasi Turk tillarining raqamli suverenitetini ta'minlaydigan, lingvistik birlikni aks ettiruvchi yagona sun'iy intellekt modeli yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat tilshunoslik, balki madaniyat, tarix va texnologiya sohalarining kesishgan nuqtasida yangi ilmiy istiqbolni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirzakhalov, J., Babu, A., Ataman, D., & Kariev, S. (2021). *A Large-Scale Study of Machine Translation in Turkic Languages.* In *Proceedings of the 2021 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP 2021).* DOI: 10.18653/v1/2021.emnlp-main.475

Jalalova S. (2023). *Scientists of Ancient Central Asia Still Relevant in the Modern World: The Idea of the Averaged Turkic Language. Times of Central Asia.* https://timesca.com/scientists-of-ancient-central-asia-still-relevant-in-the-modern-world-the-idea-of-the-averaged-turkic-language/

ЗАИМСТВОВАНИЯ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Марупов Шухрат Насимович
Самаркандский государственный институт иностранных языков
старший преподаватель,
Холмуродова Нигора
Самаркандский государственный институт иностранных языков
стажёр преподаватель

Аннотация: *В статье рассматривается заимствования в русском языке иностранных слов. Автор рассматривает процесс, в результате которого в языке появляется и закрепляется некоторые иноязычные элементы.*

Ключевые слова: *культура, иностранные слова, заимствования, русский язык, заимствования в русском языке.*

Словарный состав современного русского языка в своей истории прошел длительный путь становления. Представляется, что обширный и системно проанализированный материал словарного состава лексики русского языка убедительно показывает, что естественное использование заимствованной лексики – это сложнейший комплекс выбора в самом широком смысле. Лексика русского языка состоит не только из исконно русских слов, но и из слов, заимствованных из других языков. В истории русской лексикографии иноязычная лексика пополняла и обогащала русский язык на протяжении всего процесса еѐ исторического развития. История процесса заимствования началась еще в древности, ибо лексика, еѐ основные особенности внедряются в язык вместе с реалиями, ими обозначаемыми. Следовательно, процесс заимствования – это результат взаимодействия различных языков и культур. Сегодня существует весьма мало живых языков, сохранившихся в первозданном виде. Освоение в разные эпохи русским языком иноязычных слов отражает историю обогащения его лексического фонда, на основе экономических, политических, культурных контактов с другими странами, а также военных столкновений, наложивших свой отпечаток на эволюционное развитие языка.

В следующих суждениях Долговой О.В.- «Фундаментальная наука, методологическая безупречная научная теория-необходимые условия успешного развития языковедческой практики, нуждам которой она служит и с помощью которой эта теория повседневно проверяется и обогащается» (6,89) -обретает свое научное воплощение критерий практики прикладной лингвистики. Самые первые заимствования из неславянских языков произошли еще в VIII—XII вв. Из скандинавских языков (шведского, норвежского) вошли в русский язык слова, связанные с морским промыслом, имена собственные. В официально-деловой речи Древней Руси употреблялись слова (ныне устаревшие) вира, тиун, ябеда, плут, клеймо. Из финно-угорских языков заимствованы названия рыб, а также некоторые слова, связанные с укладом жизни северных народов. Под влиянием Золотой Орды русский язык принял множество тюркских слов, большинство из которых давно уже стали органичной частью русского языка и не воспринимаются как заимствованные. Таковы, например, слова башка, кутерьма, караул, казна и др. Значительное влияние на язык Древней Руси оказал греческий. Киевская Русь вела оживленную торговлю с Византией. Проникновение греческих элементов в русскую лексику началось еще до принятия христианства на Руси (VI в.) и усилилось под воздействием христианской культуры.

Из греческого языка были заимствованы многие названия бытовых предметов, слова, связанные с наукой, просвещением как грамматика, история, философия, алфавит, диалект. Заимствованиями из области религии были слова ангел, алтарь, амвон, анафема, архимандрит, антихрист, архиепископ, демон, елей, евангелие, икона, схима, лампада, монах, монастырь, пономарь, протоиерей, панихида и мн. др. Более поздние заимствования из греческого языка относятся исключительно к сфере наук и искусств. Многие грецизмы были приняты через другие европейские языки и широко используются и в современной научной терминологии: логика, психология, идиллия, идея, критика, лексикон и др. Заимствованная лексика постоянно требует уточнений, и потому для нормирования правил их употребления выдвигаются повышенные требования к правильности их использования. Особое место в русской лексике занимают заимствования из старославянского (церковнославянского) языка,

хотя будучи языком богослужебных книг, старославянский вначале был далек от разговорной речи. Однако со временем он испытал заметное влияние восточнославянского языка и сам, в свою очередь, наложил отпечаток на народную речь. Русские летописи отражают многочисленные случаи смешения этих родственных языков. Церковнославянский язык обогатил русскую речь словами, обозначающими отвлеченные понятия, которые не имели свои названия. В сфере старославянизмов, вошедших в состав русской лексики, можно выделить несколько групп:

1) слова, восходящие к общеславянскому языку, имеющие восточнославянские варианты иного звучания или аффиксального оформления: злато,глава;

2) старославянизмы, у которых нет созвучных русских слов: перст, уста (сравним с русскими палец, губы);

3) семантические старославянизмы, т.е. слова, получившие в старославянском языке новое значение, связанное с христианством: бог, грех, жертва, блуд.

Лексическое влияние европейских языков на русский стало заметно ощущаться в XVI — XVII вв., особенно в Петровскую эпоху, в XVIII в. Преобразование всех сторон русской жизни при Петре I, его административные, военные реформы, успехи просвещения, развитие науки — все это способствовало обогащению русской лексики иноязычными словами. В русскую лексическую систему вошли названия новых предметов быта, военные и морские термины, слова из области науки и искусства. Большей частью немецкие (контора, пакет, прейскурант, вексель, акция, агент, лагерь, штаб, командир, офицер, юнкер, ефрейтор, штопор, бутерброд, бухгалтер, штраф, шахта, парик, локон и др.), голландские (матрос, рейд, флот, флаг и др.) и английские (мичман и др.) слова. Ощутимое влияние на русскую речь оказал французский язык. В конце XVIII-начале XIX вв. в светском обществе считалось неприличным говорить по-русски. Галломания так захватила русское образованное общество, что иные дворяне знали французский язык лучше родного. Наследием этой эпохи являются слова салон, лакей, авангард, капитан, генерал, лейтенант, рекрут, корнет, корпус, депрессия, сеанс, одеколон, авантюра, вуаль, котлета, декада,

парламент и многие другие. Привычное словосочетание «детский сад» также является калькой с французского. Через французский язык к нам попали некоторые итальянские слова: барокко, карбонарий, кавалер, баррикада, кредит, карнавал, бандит, шарлатан и др. В этих условиях наиболее надежным критерием для установления семантических закономерностей их связей с другими словами становится процесс сочетаемости указанных лексем с другими единицами, постоянно требуя уточнений, так как семантика любого заимствованного слова реализуется в определенно-устойчивых связях его с другими словами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Барлас, Л.Г. Русский язык. Введение в науку о языке. Лексикология. Этимология. Фразеология. Лексикография: Учебник /Под ред. Г.Г. Инфантовой/Л.Г.Барлас. – М.: Флинта: Наука, 2003.

2. Большой словарь иностранных слов. – М.: ЮНВЕРС, 2003.

3. Боженко, Л.Н. Заимствованная лексика в современном русском языке: http: //filologdirect. narod. Ru / sra /sra_2006_19.html.

4. Введенская, Л.А., Колесников Н.П. Этимология: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2004.

5. Горбачева, Т. Угроза русскому языку или неизбежное явление/Т.Горбачева.– М. , 1990.

6. Долгова, О.В. Синтаксис как наука о построении речи/О.В.Долгова.- М.: Высшая школа.1980, 191 с.

Linux Operasion Tizimi: Afzalliklari va kamchiliklari

Mahmudjonov Mirjalol Ilhomjon o‘g‘li
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Sun’iy intellekt mutaxassisligi
magistratura talabasi
E-mail: mirjalolmahmudjonov020@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Linux operatsion tizimining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida foydalanuvchi bilan kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yaxshilash masalalari ko‘rib chiqiladi. Linux tizimi Windowsdan nafaqat tashqi ko‘rinish jihatidan, balki ishlash falsafasi bilan ham farq qiladi. U operatsion tizimdan tashqari, kompyuter resurslaridan samarali foydalanish g‘oyasini ham ifodalaydi.

- Linux usuli:

- Linux tizimining asosiy falsafalaridan biri - har bir dastur faqat bitta aniq vazifani bajarishi va uni imkon qadar mukammal amalga oshirishidir. Bu yondashuv tizimni modulli va samarali qiladi.
- Linux foydalanuvchilari muammoni hal etishda turli yechimlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Har bir foydalanuvchi o‘z ehtiyojiga mos vositalarni tanlashi mumkin, bu tizimning moslashuvchanligini ta’minlaydi.
- Linux tizimida barcha komponentlar fayl tizimi orqali boshqariladi. Dasturlar, sozlamalar va qurilmalar ham fayl shaklida namoyon bo‘ladi, bu esa tizim boshqaruvini soddalashtiradi.

Kalit so‘zlar: Linux ishonchli, Linux operasion, Windows foydalanuvchi, Linux distributivlari, Linux operastion tizimida xato yuzaga kelsa, Linux grafik interfeysi, Linux geymerlar uchun emas, Linux ochiq kodli operastion tizim.

Операционная система Linux: преимущества и недостатки

Махмуджанов Миржалол Илхомжон угли
Университет точных и социальных наук, специальность «Искусственный интеллект» магистрант
Электронная почта: mirjalolmahmudjonov020@gmail.com

Аннотации

В данной статье анализируются преимущества и недостатки операционной системы Linux. В процессе исследования рассматриваются вопросы улучшения взаимодействия пользователя с компьютером. Система Linux отличается от Windows не только внешним видом, но и философией функционирования. Помимо операционной системы, она также воплощает идею эффективного использования ресурсов компьютера.

- Линуксовый метод:

- Одна из основных философий системы Linux заключается в том, что каждая программа должна выполнять только одну конкретную задачу и выполнять её максимально идеально. Такой подход делает систему модульной и эффективной.
- Пользователи Linux имеют возможность использовать различные решения для решения проблемы. Каждый пользователь может выбрать инструменты, наиболее соответствующие его потребностям, что обеспечивает гибкость системы.
- В системе Linux все компоненты управляются через файловую систему. Программы, настройки и устройства также представлены в виде файлов, что упрощает управление системой.

Ключевые слова: Надежный Linux, операционная система Linux, пользователь Windows, дистрибутивы Linux, ошибка операционной системы Linux, графический интерфейс Linux, Linux не для геймеров, Linux — операционная система с открытым исходным кодом.

Linux Operating System: Advantages and Disadvantages

Mahmudjonov Mirjalol Ilxomjon o'g'li
University of Exact and Social Sciences majoring in Artificial Intelligence master's student
E-mail: mirjalolmahmudjonov020@gmail.com

Annotation

This article analyzes the advantages and disadvantages of the Linux operating system. In the process of research, issues of improving the interaction between the user and the computer are considered. The Linux system differs from Windows not only in appearance, but also in its philosophy of operation. In addition to the operating system, it also embodies the idea of efficient use of computer resources.

- Linux method:
- One of the main philosophies of the Linux system is that each program should perform only one specific task and perform it as perfectly as possible. This approach makes the system modular and efficient.
- Linux users have the opportunity to use various solutions to solve the problem. Each user can choose the tools that best suit their needs, which ensures the flexibility of the system.
- In a Linux system, all components are managed through a file system. Programs, settings, and devices are also represented in the form of files, which simplifies system management.

Keywords: Linux reliable, Linux operating system, Windows user, Linux distributions, Linux operating system error, Linux graphical interface, Linux is not for gamers, Linux is an open source operating system.

Linux operatsion tizimining asosiy ustunliklari — xavfsizlik, ochiqlik va qulaylikdir. Ushbu tizim ilk bor 1991-yilda fin dasturchisi Linus Torvalds tomonidan yaratilgan. Linux o'rnatilgandan so'ng foydalanuvchilar tizimning yuqori xavfsizlik darajasidan foydalanishlari mumkin. Operatsion tizim arxitekturasi zararli dasturlar faoliyatini sezilarli darajada cheklaydi, bu esa qo'shimcha antivirus vositalariga ehtiyojni kamaytiradi.Albatta,

viruslar siz antivirus dasturlari yordamida haqida unutish mumkin, shuning uchun ammo, tizimi tuzilishi, ularning mavjudligi haqida xavotir olmang imkonini beradi.

Linux - barqarorligi va bepul tarqatilishi bilan ajralib turuvchi ochiq kodli operatsion tizimdir. Internetga ulangan foydalanuvchi uni osonlik bilan o'rnatishi va o'z ehtiyojiga moslab sozlashi mumkin.

OS doimo takomillashtirib borilmoqda. Agar - tajribali foydalanuvchi, siz operatsion tizimi sozlash bilan tajriba qilish mumkin. OS Linux veb-tizimga siz uchun to'g'ri dastur siz qiziqarli ma'lumotlarni topishingiz mumkin. Buyruq liniyasi yuklashingiz mumkin. Bu holatda siz bir necha dasturlar o'rnatish mumkin, deb ta'kidlash lozim.

Linux operatsion tizimi ishlatish uchun qulay hisoblanadi. Hozirgi kunda, kompyuter odamlar bilan hatto begona edi. OS o'rnatish uchun qiyinchilik holda ega bo'ladi. Yaqin-yaqingacha, bu savol shunday dolzarb emas edi. Endi har birimiz Windows bir kontrafakt nusxasi katta qiyinchilikka olib, OS bir lisenziya versiyasini sotib olish emas balki har bir lisenziya deb tushunadi. Linux operasion tizimini qurishda, siz cheksiz imkoniyatlar bepul dasturlar minglab kirish ochadi. Linux operastion tizimini hozirgi kundagi eng ommabop xisoblanmish, Windows operastion tizimi bilan solishtirar ekanmiz, biz uni afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqishimiz lozim. Umumiy oladigan bo'lsak Linux operastion tizimini Windows operastion tizimidan zo'r yoki yomon deb aytish noto'g'ri bo'lardi. Chunki Linux operastion tizimi umuman boshqa arxitekturali operastion tizimdir. Linux operastion tizimida Windows operastion tizimi oilasiga mansub operastion tizimlardagidek «PUSK» menyusi yoki bo'lmasa, lokal disk "C:/" ning yo'qligi yangi foydalanuvchiga biroz o'zgacha tuyulishi mumkin. Bu albatta mohir foydalanuvchi yoki dasturlovchi uchun hech qanday to'siq bo'la olmaydi.

Linux yagona tizim emas, - u bir xil yadroni asos qilib olgan ko'plab distributivlardan tashkil topgan ekotizimdir. Balki bir xil yadroni asos sifatida ishlatadigan ko'plab turli distributivlardan iborat tizimlar oilasidir. Linuxning juda ko'p distributivlari mavjud: Debian, Fedora, Gentoo, Mandriva, openSUSE, Red Hat, Slackware, Ubuntu. Ularning barchasini birgina yadro birlashtirib turadi. Biz ushbu sahifamizda Linuxning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini sanab o'tamiz.

Linux operastion tizimi distributivlari mutlaqo bepul tarqatiladi va yangi chiqqan utilitlar va dasturlar ham shular jumlasidandir. Linux operastion tizimiga egalik qilish huquqi hech kimga berilmagan. U erkin tarqatiladi. Linux distributivlari uchun qo'shimcha yangiliklar, dasturlar, utilitlar dunyodagi ko'pgina dasturlovchilar birlashgan forum va loyihalarda ishlab chiqiladi.

Windows operastion tizimida biror bir xato yoki kamchilik paydo bo'lsa uni faqatgina Microsoft kompaniyasining o'zigina to'g'rilay oladi va faqatgan rasmiy saytdan uning yangilangan paketlarini yuklab olish mumkin. Linux operastion tizimida xato yuzaga kelsa, uni dasturchilar forumi yordamida bartaraf etish mumkin. Buning sababi Linux ochiq kodli operastion tizim, Windows esa yopiq kodli operastion tizimligidadir. Linux ni faqat dasturchilar yoki mohir foydalanuvchilar uchun yaratilgan operasion tizimi deb o'ylovchilar qattiq yanglishadi. Chunki xozirgi kunga kelib oddiy foydalanuvchilar uchun qo'l keladigan KDE, GNOME, Unity kabi grafik muhitlar mavjud. Ular yordamida turli xil darajadagi foydalanuvchilar operastion tizimida ishlashlari mumkin.

Windows muhiti bilan ishlashga odatlangan foydalanuvchilar uchun Linux interfeysi dastlab g'ayrioddiy tuyulishi mumkin, chunki menyular joylashuvi va boshqaruv uslubi farq

qiladi. Xuddi shunday Linux grafik interfeysida ishlab o'rgangan foydalanuvchi Windows muhitiga moslashishi qiyin kechadi va bir qancha noqulayliklarga duch kelishi aniq.

Linux tizimida zararli dasturlar soni juda kam. Bu tizimning xavfsizlik arxitekturasi foydalanuvchidan administrator ruxsatisiz muhim o'zgarishlar kiritishga yo'l qo'ymaydi. Operastion tizimning xavfsizlik mexanizmi sodda va ishonchli tuzilgan: operasion tizimning ishlashiga bevosita ta'sir qiluvchi va xavf tug'diruvchi omillar(tizim sozlashlarini o'zgartirish, dasturlarni o'rnatish va o'chirish uchun administrator paroli so'raladi) yuzaga kelmaydi. Administrator ruxsatisiz tizimda hech qanday o'zgartirish kiritib bo'lmaydi. Linux muhiti faqat siz ruxsat bergan dastur uchun zarur jarayonni ishga tushiradi.

Linux o'rnatish jarayoni biroz qiyin. Linux distributivi turiga qarab, uni o'rnatish jarayoni farq qiladi. Ba'zi distributivlarda Windows kabi grafik muhit mavjud bo'lsa, ba'zilarida konsol muhitida o'rnatish amalga oshiriladi. Ana shu konsol muhiti buyruqlar bilan ishlashni talab qiladi. Bu esa hamma foydalanuvchilarni qo'lidan kelmaydi.

Linux tizimi dastlab o'yinlar uchun mo'ljallanmagan edi, biroq hozirda Steam, Lutris kabi platformalar tufayli bu sohada ham imkoniyatlar sezilarli darajada kengaymoqda, biroq so'nggi yillarda Steam va boshqa platformalar yordamida bu sohada ham imkoniyatlar kengaymoqda. Hozirgi kunga kelib Linux operasion tizimi uchun yaratilgan o'yinlar Windows uchun yaratilgan o'yinlar bilan tenglasha olmaydi. Linux ni tanlagan foydalanuvchi undan o'yin o'ynashni niyat qilmasligi aniq. Agar siz kelajakda katta video xajmdagi o'yinlarni o'rnatish niyatingiz bo'lsa, u holda Windows ni tavsiya qilamiz.

Linux, mohir dizaynerlar uchun emas. Afsuski, bu xaqiqat. Ammo bu sizning qaysi soha mutaxassisi ekanligingizga ham bog'liqdir. 3D grafikasi bilan ishlovchi dizaynerlar uchun Linux operastion tizimida Blender dasturi qo'l keladi. Ammo ushbu dastur 3ds Max kabi natija bermasligi mumkin. Yoki bo'lmasa Windows dagi Adobe Photoshop uchun Linux da GIMP dizaynerlik dasturi mavjud.

Linux IT – texnologiya bilan bevosita bog'liq foydalanuvchilar uchun yaratilgan operastion tizimdir.

Linux tizimi ko'plab qurilmalarni avtomatik ravishda aniqlaydi va drayverlarni o'rnatadi. Foydalanuvchi qo'shimcha dasturlarni qo'lda o'rnatishga kamdan-kam ehtiyoj sezadi. Linux sizni kompyuteringiz uchun drayverlar qidirishdan ozod etadi. Shuningdek linux birinchi yuklangandayoq unda kolonka, mikrofon, printer, skaner kabi qurilmalar ishlashni boshlaydi. Ular uchun qo'shimcha dasturlarni o'rnatish shart emas. Ammo video adapterlar uchun qo'shimcha drayverlarni o'rnatish lozim. Biroq ular Windows operastion tizimidagi kabi yuqori ishlab chiqaruvchanlik bilan ishlamaydi.

Linux operasion tizimi: kamchiliklar. Taqdim OS ba'zi qurilmalar (masalan, grafik karta, Wi-Fi va boshqalar) bilan mos emas. Kompyuterga o'rnatilgan qurilma maxsus dasturlar (haydovchi) qo'llab-quvvatlagan. Bu qurilma va operasion tizim o'rtasidagi vositachi bir xil bo'ladi. Bu ishlab chiqaruvchilarining har biri uchun turli operasion tizimlari uchun tegishli drayverlarga ishlab chiqarish. qoida tariqasida, birinchi, eng mashhur operasion tizim uchun drayverlarga paydo - Windows. Sizning kompyuteringizdagi qurilmalarning bir qismi o'z ichiga oladi, shu sababli, birinchi namunalari, Linux operasion tizimi hali ularni qo'llab-quvvatlash mumkin emas yaqinda (ikki oy oldin) bozorda paydo bo'ldi.

OS Linux nazorat qilish tekisligi foydalanuvchi katta imkoniyat beradi. Windows bilan solishtirganda Linux operasion tizimi, bir oz ko'proq e'tibor talab qiladi. Mashhur OS uchun

Windows foydalanuvchi, faqat tugmasini bosing qayerda "OK", Linux foydalanuvchi har qanday variant tanlash kerak edi va faqat keyin "OK" tugmasini bosing. Bunday talablar barcha fitnes darajadagi odamlar uchun mo'ljallangan axborot, bir baraka ko'maklashdi. Dasturiy ta'minot yangilash uchun asosiy manba - siz internetga doimiy ruxsat yo'q bo'lsa, World Wide Web Linux o'rnatish imkoniyatlarini, savol lozim. Linuxni o'rnatish orqali siz "tuzatish davrida" kichik noqulayliklar uchun tayyor bo'lishi kerak. Vaqtinchalik noqulaylik belgilangan OS foydalanish qiyinchiliklar afsona asosiy manbaidir. Linux qobiliyatini baholash uchun, bir kompyuter ustida bir necha operatsion tizimlari o'rnatish mumkin, chunki siz, hozir foydalanayotgan operatsion tizimi voz yo'q. Linux operatsion tizimi - ehtimol va tanlash, hatto zarurat. ikkinchisi sizga ba'zi noqulayliklarni keltirib bo'lsa, OS siz uchun emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andrew S. Tanenbaum, Modern Operating Systems:, Fourth Edition. Prentice Hall. 2014 – 1137p.
2. Gordeyev A.V. Operasionnыye sistemы//Uchebnoye posobiye, Moskva: Izd.dom: "Piter", 2008, — 384 str.
3. Olifer V.G., Olifer N.A., Setevыye operasionnыye sistemы M:Piter 2006. 560 str.
4. Andrew S. Tanenbaum, Albert S. Woodhull. Operating Systems: Design and Implementation, Third Edition. Prentice Hall. 2006 – 1080p.
5. Arash H. L., Mohammadreza M. Mobile Operating Systems and Programming.Andrew S. Tanenbaum. Distributed operating systems.
6. Trent Jaeger. Operating Systems Security.SibsankarHaldar, Alex AlagarsamyAravind. Operating Systems. 2010 – 563p.
7. Craig Hunt, Robert Bruce Thompson. Windows NT TCP/IP Network Administration. O'Reilly Media. 1998. - 512p

Internet resurslar

1. http://www.tuit.uz
2. http://www.atdt.uz
3. http://ziyonet.uz
4. http://www.wikipedia.org
5. http://www.intuit.ru
6. https://uz.delachieve.com
7. https://www.texnoman.uz

EASY WAYS OF MAKING PARAGRAPHS IN ENGLISH
INGLIZ TILIDA PARAGRAPH TUZISHNI OSON USULLARI
ЛЕГКИЕ СПОСОБЫ СОЗДАНИЕ АБЗАЦА ПО-АНГЛИЙСКИ

TDYU huzuridagi Samarqand viloyat akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchilari:
Xolboyev Xushbek Ashirbekovich *xushbekxolbayev@gmail.com*
Qahhorova Gulrux Xurshedjanovna *gulruxanvar1234@gmail.com*

Annotation
This article pays great attention to the methods of teaching as well as learning how to make a relevant paragraph in the English language and written according to new technologies.
All differences and advantages of new methods described widely and exactly in this article and the teacher tries to give samples from his experience, which are considered very important for both teachers and learners.
Key words: simple statements, simple structures, non-finite forms of the verb, verb tenses, gerund, infinitive, participles, nouns, singular predicate.
Annotatsiya
Ushbu maqolada ingliz tilida tegishli paragraf yaratish va yangi texnologiyalar asosida yozishni o'rganish bilan birga o'qitish usullariga katta e'tibor qaratilgan.
Yangi usullarning barcha farqlari va afzalliklari ushbu maqolada keng va aniq tasvirlangan va o'qituvchi o'z tajribasidan namunalar berishga harakat qiladi, bu ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar uchun juda muhim hisoblanadi.
Kalit so'zlar: sodda gaplar, sodda tuzilmalar, fe'lning cheksiz shakllari, fe'l zamonlari, gerund, infinitiv, kesim, ot, birlik predikat.
Аннотатция
В этой статье большое внимание уделяется методам обучения, а также обучению тому, как составить соответствующий абзац на английском языке и написать его в соответствии с новыми технологиями.
Все отличия и преимущества новых методов широко и точно описаны в данной статье, а преподаватель старается привести образцы из своего опыта, которые считаются очень важными как для преподавателей, так и для учащихся.
Ключевые слова: простые высказывания, простые конструкции, неличные формы глагола, времена глагола, герундий, инфинитив, причастия, существительные, сказуемое единственного числа.
Paragraphs are medium-sized units of writing, longer than sentences, but shorter than sections, chapters, or entire works. Because they connect the "small" ideas of individual sentences to a "bigger" idea, paragraph structure is essential to any writing for organization, flow, and comprehension.

Students have a lot of questions when it comes to writing a paragraph: How many sentences should you use? How do you transition within a paragraph? Below we explain everything you need to know about paragraph structure to write like an expert, including several paragraph examples. [6]

How is a paragraph structured?

Understanding the elements of a paragraph is crucial for organizing your thoughts and conveying your message effectively. A well-constructed paragraph typically contains the following elements:

- **Unity:** All sentences in the paragraph should support the main idea stated in the topic sentence. Avoid introducing unrelated ideas that could confuse the reader.
- **Coherence:** The sentences should flow logically and smoothly from one to the next. Use transition words and phrases to help link ideas and maintain readability.
- **Adequate Development:** A paragraph should provide enough detail to thoroughly explain or support the main idea. This may include examples, explanations, facts, or anecdotes.
- **Order:** The information within a paragraph should be organized in a logical sequence. Depending on the purpose, this might be chronological, spatial, or based on importance.

Topic Sentence

The topic sentence is the first sentence of the paragraph and introduces the main idea. It tells the reader what the paragraph is about and sets the tone for the rest of the sentences.

Supporting Sentences

These sentences develop the main idea introduced in the topic sentence. They provide explanations, examples, evidence, or details to support the topic.

Example:

"When you read a variety of books, you encounter new words in different contexts."

Concluding Sentence

The concluding sentence wraps up the paragraph by summarizing the main idea or providing a final thought. It gives a sense of closure and helps the reader transition to the next paragraph.

Example: "Therefore, making time for regular reading can significantly enhance language skills." [7]

Types of paragraphs

Depending on the kind of writing you're doing, you may need to use different types of paragraphs. Here's a brief explanation of the common paragraph types most writing deals with.

Expository: Common in nonfiction and all types of essays, expository paragraphs revolve around explaining and discussing a single point or idea.

Persuasive: Just like expository paragraphs, persuasive paragraphs focus on discussing a single point; however, they support opinions instead of facts.

Narrative: When telling a story, a narrative paragraph explains an action or event. Each new sentence furthers or expands upon the action by providing new information.

Descriptive: Also common in storytelling, descriptive paragraphs focus on describing a single topic, such as a person or an environment. Each new sentence adds a new detail about that topic. **Types of paragraphs**

• **A Topic sentence** ought to be followed with justifications.

• **Justifications** are types of sentences serving to prove the main ides with the help of other sentences.

• Wayne is very shy *(**topic sentence**)*. For example, he finds it difficult to make new friends. .(**justification**) [2, b. 43]

*My mum is very kind (**topic sentence**)* whenever you meet her, she is busy to help someone.(**justification**)

Paragraph creating can be divided into the following groups.

Paragraph types

gerund infinitive participle noun

GERUND

Gerund is a type of non-finite forms of the verb which has 50% nominal and 50% verbal meaning. Gerund is likely accompanied by nouns in the possessive case or possessive pronouns, Sometimes the action denoted by the gerund is not associated with any doer or any producer of the action. *Living is striving*. [4, b. 193]

The gerund may be used in various syntactic functions. A single gerund occurs but seldom; in most cases we find a gerundial phrase or a gerundial construction.

1. The gerund as a **subject**. **Talking** mends no holes [5, b. 185]

We can use gerund at the beginning of the sentence as a subject which is followed by singular predicate.

• **Reading(**gerund**)** original texts(distractors) a lot, **leads(**predicate**)** to enlarge one's vocabulary systematically.

• You can start your body paragraph with gerund using it as a topic sentence.

• *Having been glued on the screen for a long time,(**topic sentence**) makes his eyes feel tired and consequently he tends to go to bed too late to get up next morning early and in the result he misses attending several lessons on time which leads his name to be in the list of withdrawn students.(**justification**)*

INFINITIVE

Infinitive is a type of non-finite forms of the verb which has 50% nominal and 50% verbal meaning. The infinitive developed from the verbal noun, which in course of time became verbalized, retaining at the same time some of its nominal properties. Thus in Modern English the infinitive, like the participle and the gerund, has a double nature, nominal and verbal.

1. The nominal character of the infinitive is manifested in its syntactic functions. The infinitive can be used:

(a) as the **subject** of a sentence.

To go on like this was dangerous. *(Galsworthy)* [5, b. 191]

• **To become (**infinitive**)** a member of the students' union(distractors) , **demands(**predicate**)** several urgent document fillings. Talabalar birlashmasiga a'zo bo'lish (uchun) bir nechta to'ldiriladigan xujjatlar talab etiladi.

• You can start your body paragraph with infinitive using it as a topic sentence.

• *To be(**infinitive**) a skillful tutor, demands a lot of hard work on one's subject.(**topic sentence**) Furthermore, patience and understanding learners' wish are also essential key aspects of being the best teacher. Therefore, various subjects are taught at institutions specialized to prepare educators**. (justifications**)*

Mostly gerund and infinitive can be used in different form according to the meaning of the sentences such as: for instance perfect form is usually followed by the prepositions "for" ,"since"

Having lived here for several years, I can find out any street easily.

PARTICIPLES

Participle is a type of non-finite forms of the verb which is both 50% adjective and 50% verb. All the forms of Participle I may be used as an adverbial modifier. Participle I Indefinite expresses an action simultaneous with the action expressed by the finite verb [5, b. 165]

We can use **participles** at the beginning of the sentence by following the clause. **Having lived (participle)** in this are for a long time, James can find out any street easily(**clause).**

• You can start your body paragraph with participle using it as a topic sentence.

• ***Playing (participle)** computer games intermittenly.(**topic sentence**) He has some problems with his eyes, sometimes clarifying any objet not far from him is likely to seem a bit strange and in the result he has to go to the doctor **.(justifications**)*

NOUN

Nouns can be used in the prepositional phrase to fulfill various functions. In this case, verifying a singular or a plural predicate seems a bit difficult. Learner sought to clarify the noun standing before the preposition.

• **The importance(noun)** of these remarkable issues, makes **(predicate)** me think deeply.

• You can start your body paragraph with noun using it as a topic sentence.

• The popularity of my hometown, always draws a number of tourists attention to it**(topic sentence).**

• In spite of having myriads of luxury inns, foreigners are often likely to be seen seeking convenience accommodation around the city **(justification)**

All in all, knowing how to make paragraphs like these can increase learners score while being checked in IELTS test. If you use elementary vocabulary in your writing context with above cited structure, it is equalized to the sample which is written with great vocabulary.

simple	paragraph making structure	good vocabulary
If I watch coast views, I don't feel bored	Watching coast views prevents me from feeling bored	In the case of feeling disappointed, I tend to observe coast charming scenery to avoid the situation.

As an ordinary teacher, I would like to stress that each instructor ought to try to encourage their learners by the way as given above and it will show its result in the forthcoming periods.

Literatures:

1. "Matn tilshunosligi" Muhabbat Qurbonova , Ma'rufjon Yo'ldoshev. Toshkent Universiteti nashriyoti 2014
2. "Successful writing" for intermediate learners Virgina Evans Published by Express Publishing in 2000
3. **"EXAM SKILLS FOR TEACHERS AND LEARNERS OF ENGLISH" Komil Jalilov** Toshkent Turon Zamin Ziyo 2016
4. Б.С. Хаймович. Б. И. Раговская. Теоретическая Грамматика Английского языка. Высшая школа Москва 1987
5. **"A GRAMMAR OF THE ENGLISH LANGUAGE "** В. Л. КАУШАНСКАЯ, Р. Л. КОВНЕР, О. Н. КОЖЕВНИКОВА, Е. В. ПРОКОФЬЕВА, З. М. РАЙНЕС, С. Е. СКВИРСКАЯ, Ф. Я. ЦЫРЛИНА
ГОСУДАРСТВЕННОЕ УЧЕБНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ИЗДАТЕЛЬСТВО МИНИСТЕРСТВА ПРОСВЕЩЕНИЯ РСФСР ЛЕНИНГРАДСКОЕ ОТДЕЛЕНИЕ Ленинград 1963
6. https://www.grammarly.com/blog/writing-tips/paragraph-structure/
7. https://www.myenglishpages.com/how-to-structure-a-paragraph/

SANOATLASHGAN HUDUDLARDAGI ATMOSFERA HOLATINI NORMALLASHTIRISH MASALALARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Shamsidinova G. D. – NavDU dots.,
Maktabgacha va BT fakultet dekani
gulchikhra.shamsiddinova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi sanoatlashgan hudud hisoblangan Navoiy viloyatidagi kimyoviy korxonalarning faoliyati, ularda ishlab chiqariladigan turli kimyoviy moddalar: kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlarining tabiatga va inson salomatligiga ta'siri, kimyo sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni tayyorlash uchun foydalanadigan xom ashyolar, shuningdek, ishlab -chiqarish amaliyotidagi texnologik jarayonlarga e'tibor qaratilgandir.

Kalit so'zlar: Tog'-kon va metallurgiya sanoati, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlari ishlab chiqarish, "yanchish" tarmog'i, suv resurslarini tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik taraqqiyot, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, jahon savdo tashkilotiga a'zolik.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность химических предприятий Навоийской области – промышленно развитого региона Республики Узбекистан, влияние производимых там различных химических веществ: кислот, щелочей, солей, минеральных удобрений, полимеров, синтетических волокон и других видов продукции на природу и здоровье человека, сырье, используемое для приготовления продукции, выпускаемой в химической промышленности, а также технологические процессы в производственной практике.

Ключевые слова: Горно-металлургическая промышленность, производство кислот, щелочей, солей, минеральных удобрений, полимеров, синтетических волокон и других продуктов, «дробильная» промышленность, охрана водных ресурсов, охрана окружающей среды, экологическое развитие, верховенство права, государственное управление, внешняя политика, членство во Всемирной торговой организации.

Abstract: This article focuses on the activities of chemical enterprises in the Navoi region, an industrialized region of the Republic of Uzbekistan, the impact of various

chemicals produced there: acids, alkalis, salts, mineral fertilizers, polymers, synthetic fibers and other types of products on nature and human health, the raw materials used to prepare products produced in the chemical industry, as well as technological processes in production practice.

Keywords: Mining and metallurgical industry, production of acids, alkalis, salts, mineral fertilizers, polymers, synthetic fibers and other products, "crushing" industry, water resource conservation, environmental protection, ecological development, rule of law, public administration, foreign policy, membership in the World Trade Organization.

Kirish. Navoiy viloyati Markaziy Osiyo hududidagi eng sanoatlashgan hududlardan biri hisoblanib, viloyat 1958 yilda tashkil etilgan, hozirgi kunda 67 yillik tarixga ega. Navoiy viloyatining geografik o‘rni foydali qazilmalarga boy bo‘lganligi uchun, mazkur hududda tog‘-kon va metallurgiya sanoati jadal rivojlangan. Mazkur hudud jiddiyroq o‘rganilganda, Sarmishsoy darasidan qimmatbaho arxeologik topilmalar, Nurota tizmasining janubiy yonbag‘iridagi g‘orlardan esa qadimiy odamlarga tegishli turli xildagi rasmlar topilgan.

Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishi, xususan kimyoviy korxonalari bilan Respublikada o‘z o‘rniga ega, eng yetakchi hududlardan biridir. Hududdagi sanoat korxonalarida turli xildagi kimyoviy moddalar ya’ni, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o‘g‘itlar, polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlari ishlab chiqariladi va bu mahsulotlarning barchasining ishlab chiqarish jarayonlari o‘z o‘rnida, atmosfera havosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kimyo sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotlari, foydalanadigan xom ashyosi, shuningdek, texnologik jarayonlariga qarab bir necha tarmoqlarqa bo‘linadi.

Kimyo sanoatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, shu sohaga taalluqli korxonalar bir-birlariga uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritib, ularning ishlatadigan xom ashyolari ham ko‘pincha mazkur korxonalar tomonidan ishlatiladi. Mazkur jarayonlarda xom ashyolardan kompleks foydalanish, yani bir korxona faoliyati natijasida hosil bo‘lgan oraliq mahsulotlardan boshqa korxonalar foydalanishi mumkin bo‘ladi. Kimyo sanoatining rivojlanishi bilan xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish ham sezilarli darajada o‘sib, bu o‘z-o‘zidan aholi turmush farovonligining yuksalishiga hamda atmosfera tarkibining o‘zgarishlari, ya’ni tabiatdagi ekologik muammolarning kelib chiqishiga olib keladi. Quyida Navoiy viloyatida joylashgan sanoat korxonalari faoliyatidan tushunchalar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tabiatdagi mavjud ekologik muammolarni bartaraf qilish, har qanday rivojlangan mamlakatlarning kishilik jamiyatini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi 1992 - yil 2-martda BMTining a'zoligiga qabul qilinib, uning qator dasturlari va maxsus tashkilotlari: BMT Rivojlanish Dasturi, YUNEP - atrof-muhit muhofazasi bo'yicha, YUNESKO - ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha, YUNIDO - sanoat rivojlanishi hamda uning mintaqaviy komissiyalari bo'yicha, Xalqaro meterologik tashkilot, Sog'liqni saqlash xalqaro tashkiloti, BMT - EIK - Evropa iqtisodiy komissiyasi, FAO - oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, yer, suv, o'simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot, XSST - xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, XMT- iqlimdagi umumsayyoraviy o'zgarishlar bilan shug'ullanadigan xalqaro meteorologik tashkilot, IMKO - dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo maslahat tashkiloti, EKOSOS -BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'uilanuvchi kengashi hamda ESKATO - Tinch okeanning iqtisodiy va ijtimoiy komissiyalari tashkilotlariga a'zo bo'ldi va hozirgi vaqtda ular bilan hamkorlikda turli amaliy ishlar olib bormoqda. 1992 - yilda Rio-de Janeyroda o'tkazilgan BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish masalasi"to'g'risidagi anjumani O'zbekiston uchun global ekologik barqarorlikka erishish yo'lidagi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Dunyoda XVIII-XIX asrning buyuk biologlari ham biologiya fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, o'simlik va hayvonlarning yashashi, hayot tarzi va tarqalishini o'rgandilar. Mazkur davrda ekologiya fanlari ancha jadal rivojlangan, dunyoning turli burchaklarida turli olimlar tomonidan ekologik tadqiqotlar olib borilib, ularning barchasi tashqi organik olamning muvozanatini ushlash uchun xizmat qiladi.

Ekologiyaga mustaqil fan sifatida XX asrning boshlarida vujudga kelib, uning rivojlanishiga usha davr olimlaridan Byuffon M., Lamark J.B., Anton van Levinguk, Rechard Bredli, Myobius, Ernest Gekkel, A.Gumboldt, K.F.Rule, N.A.Severtsov, Ch.Darvin, A.N.Beketov, G.F.Morozov, V.N.Sukachev, V.G.Ramenskiy, K.Raunkier, Ch.Elton, M.S.Gilyarov, N.S.Serebryakov, A.Tensli, G.Odum, Yu.Odum, B.A.Keller, V.V.Alexin, V.G.Ramenskiy, A.P.Shennikov, A.F.Middendorf va boshqalarning

fitotsenologiya sohasidagi ishlari umumiy biotsenologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Navoiy viloyati hududidagi sanoat korxonalari o‘zlaridan ma’lum miqdordagi chiqindilarni viloyatning atmosfera, gidrosfera va litosfera qatlamlariga chiqarib, hudud strukturasining o‘zgarishlariga olib keladi. Ishlab- chiqarish korxonalaridagi chiqarilayotgan zaharli chiqindilar hududdagi ma’lum bir patogen kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Navoiy kon-metallurgiya kombinati mamlakatdagi eng yirik sanoat korxonasi bo‘lib, bu yerda oltin, uran, nodir metallar, qurilish va dastgohsozlik sanoati uchun zarur mahsulotlar, keng turdagi xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqariladi. Kombinat O‘zbekistondagi jami sanoat mahsulotining 10 foizini va byudjet daromadining 18 foizini ta’minlaydi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati xom-ashyo resurslarining hajmi bo‘yicha jahondagi oltin ishlab chiqaruvchilar orasida uchinchi o‘rinda turib, mazkur jarayonning o‘zi kombinatning mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin egallaganligini ko‘rsatib beradi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatini har tomonlama rivojlantirish maqsadida, mamlakatda uni 2026-yilgacha rivojlantirish dasturi izchil amalga oshirilib, 2017-2019-yillarda 1,2 milliard dollar mablag‘ evaziga 8 ta obyekt ishga tushirilgan. Natijada oxirgi uch yilda oltin ishlab chiqarish hajmi 2,5 foiz, kumush olish 37 foizga oshrildi. Kombinatni yanada rivojlantirish maqsadida 2026-yilga qadar korxonada ishlab chiqarish hajmini 94 tonnaga yetkazish, buning uchun 4 milliard dollarlik 40 ta loyihani amalga oshirish kerakligi ta’kidlandi. Jumladan, loyiha qiymati 525 million dollar bo‘lgan yangi konni o‘zlashtirish bo‘yicha tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.



1-rasm. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining umumiy ko'rinishi.

Kombinatning bugungi kundagi 3,7 ming tonna oltin zahirasi xalqaro standartlar asosida baholanib, korxona balansida aks ettirilishi zarurligi belgilandi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatini isloh qilish maqsadida mamlakatda bir qancha islohotlar amalga oshirilib, korxona faoliyati qayta ko'rib chiqilmoqda.



2-rasm. Ish jarayonidan lavha.

Hozirgi kunda Zafarobod markaziy ruda boshqarmasi 170000 ga maydonda uran olish ishlari olib borib, mazkur maydonlarni turli darajada yaroqsiz holatga keltirmoqda. Ikkinchi navbat uchun ajratilgan umumiy maydon 16 000 ga ni tashkil qiladi.Olib borilayotgan amaliy faoliyat natijasida yer osti tuzlari miqdori 10-50, ba'zi bir radioaktiv moddalar miqdori 10-20 barobar oshgan. Navoiyazot kombinati o'zining 570000m.kublik zaharli chigitlarini 50 ga maydonga ega bo'lgan suv havzalariga oqizib, uning asosini polimerlar 25%, rodonitlar 10%, qattiq aralashmalar, tarkibida seonit 50 mg/l, ammiak 150, sul'fat tuzlari 15000, mis 2500mg/l tashkil qiladi.



3- rasm. Kon-metallurgiya kombinati konlarida qazish jarayonlari.

«Qizilqumsement» aktsiyadorlik jamiyati. «Qizilqumsement» aktsiyadorlik jamiyati Navoi shahridan 7-8 km masofada janubi-g'arbda va Toshkent-Samarqand-Buxoro magistral` yo'ldan 3 km uzoqlikda joylashgan. Amaldagi uchta liniyaning tasdiqlangan loyiha quvvati yiliga 3 mln.80 ming tonna sement ishlab chiqarishni tashkil etadi. Hududning rel`efi – shimolga qarab pasayib, iqlimi reskin-kontinental, harorat -24 darajadan +47 darajagacha o'zgarib boradi. «Qizilqumsement» AJ quyidagi xom-ashyo bazasiga ega: ohak kar`eri sanoat maydonidan 7 km va slanetslar kar`eri esa zavoddan 3 km masofada joylashgan. Ohak va slanetslar kondan og'ir yukli avtoulovlarda parchalash bo'limlariga olib kelinib, yanchilgandan keyin ohak va slanetslar zavodga uzunligi 5,5 km bo'lgan magistral` tasma konveyeri orqali yetkaziladi.

Korxonada 1977-1978 yillarda 6,4/7 m diametrli pechkasi aylanib turadigan uzunligi 95 metr birinchi va ikkinchi texnologik liniyalar, 1989 yilda esa pechkasi aylanib turadigan diametri 4,5 m uzunligi 97,5 m bo'lgan reaktorli – dekarbonizatorli uchinchi texnologik liniya ishga tushirildi. Har bir aylanib turadigan pechkaning loyiha quvvati sutkasiga 3000 t klinker ishlab chiqarishni tashkil etib, xom-ashyo tarmog'i diametri 4,2 m sakkizta xom-ashyo tegirmoni va uzunligi 1.0 m havo o'tuvchi separatorlar bilan jihozlangan. "Yanchish" tarmog'i diametri 4,0 m va uzunligi 13,5 m bo'lgan oltita sement tegirmonlardan iborat.



4 -rasm. «Qizilqumsement» aktsiyadorlik jamiyati.

«Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati. «Navoiyazot» 1964 yilda ishga tushirilib, korxonada qishloq xo'jaligi, neft-gaz tarmog'i, energetika va tog'-kon sanoati ehtiyoji uchun 70 turdan ziyod mahsulot ishlab chiqariladi. Texnologik uskuna hamda qurilmalar jismonan va ma'nan eskirayotganligi e'tiborga olinib, korxonada bosqichma-bosqich modernizatsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Jamiyat hududida uchta yirik investitsion loyiha: polivinilxlorid

(PVX), kaustik soda va metanol, ammiak va karbamid hamda azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalari qurilishi qizg‘in davom etmoqda. Viloyatda bunyod etilgan mazkur korxonalarga zamonaviy, tejamkor texnologik uskunalar o‘rnatilib, polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish loyihasining umumiy qiymati 500 million AQSh dollaridan oshib, qurilish ishlarini Xitoyning «China CAMC Engineering CO. LTD» va «HQC (Shanghai)» kompaniyalari konsorsiumi hamda mahalliy mutaxassislar amalga oshirmoqda.



5 -rasm. «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatining umumiy ko‘rinishi.

Korxona foydalanishga topshirilgach, yiliga import o‘rnini bosuvchi 100 ming tonna polivinilxlorid, 75 ming tonna kaustik soda, 300 ming tonna metanol tayyorlanib, 900dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Mahsulotning 50 foizdan ortig‘ini eksport qilish ko‘zda tutilib, bu yerda o‘rnatiladigan zamonaviy uskunalarni boshqarish uchun mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarida injyener-texnolog, mexanik, energetik, iqtisodchi va dasturchilar tayyorlanyapti.

«Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatining mavjud energiya sarfi yuqori bo‘lgan ammiak ishlab chiqarish 1-2 navbatlari ekspluatatsiyadan chiqarilib, ammiak va karbamid ishlab chiqarish bo‘yicha umumiy qiymati 985 million AQSh dollaridan ziyod bo‘lgan loyiha amalga oshirilmoqda. Qurilish ishlari yakunlangach, bu yerda yiliga 660 ming tonna ammiak, 577,5 ming tonna karbamid olish, ulardan tayyorlanadigan mineral o‘g‘itlar turini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mazkur tashkilot ishlab chiqarayotgan kimyoviy o‘g‘itlar Respublika qishloq xo‘jaligini yanada yuksaltirish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiy elektrkimyo zavodi aksiyadorlik jamiyati - O‘zbekistondagi eng yirik kimyo kombinatlaridan biri bo‘lib, "O‘zkimyosanoat" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur korxona o‘simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari

(gerbitsidlar, insektoakaritsidlar, zootsidlar, o'sishni boshqaruvchi moddalar), atsetilen qurumi, aktivlashtirilgan ko'mir, oddiy superfosfat, sirka kislotasi, A. V markali etilatsetat, metil-atsetat, suyuq shisha, xalq iste'mol mollari — osh tuzi, yodlangan osh tuzi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi va uning chiqindisi 7 mln. 800 000 m. kubni tashkil qiladi.

Korxona 1971-yil Navoiy kimyo kombinati tarkibidan Navoiy elektrkimyo kombinati sifatida ajralib, dastlab xlororganik moddalar ishlab chiqarishga mo'ljalangan. 1976-yildan o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan, 1980-yilda birinchi mahsulot — kotoroy gerbitsidi ishlab chiqarildi. 1996-yildan Navoiy "Elektrkimyozavodi" aksiyadorlik jamiyati — O'zbekiston-Panama qo'shma korxonasi hisoblanib, uning yer maydoni 125 ga maydonni egallagan, u yerdagi tuproq tarkibi o'ta murakkab organik birikmalardan iborat. Atrof muhitni toza saqlash va tabiiy yoqilg'i resurslarini tejash borasida so'nggi yillarda vodoroddan foydalanish muammosi yuzaga keldi. Vodorodning afzalligi shundaki, birinchidan zahirasi cheklanmagan sanoat miqyosida ishlab chiqarish tobora oshib bormoqda, ikkinchidan u universal yoqilg'i hisoblanib, elektr ishlab chiqarishda, avtotranstport, aviatsiya, dengiz transportida suyuq, gaz holida ishlatish mumkin.

Navoiy shahar gidrometeorologiya boshqarmasiga qarashli atmosfera havosining monitoringini olib borish kuzatuv laboratoriyasi (LMZAV) tomonidan kuzatuv postlarida atmosfera havosidan namunalar olinib tahlil qilinganda, azot oksidlarining miqdori 0,09 mg/m3 ni tashkil etib (me'yor-0.04 mg/m3), belgilangan me'yorlardan 2,25 barobar, ammiak miqdori esa 0,08 mg/m3 (me'yor-0,04 mg/m3) 2 barobar yuqoriligi qayd etilgan. Boshqarma mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu kabi salbiy holat kelib chiqishiga havo harorati keskin ko'tarilib ketishi, shamol tezligining pastligi sababli zararli gazlarni tarqalishi qiyinlashishi sabab bo'lmoqda.

Texnikaviy taraqqiyot davrida atmosfera havosining ifloslanishi Navoiy viloyati hududlarida ayniqsa sezilarli darajada ortganligi hech kimga sir emas. Birgina atmosfera havosining yuqori darajada ifloslanganlik holati quyidagicha: Ikki yuz mingga yaqin aholisi bo'lgan Navoiy shahridagi sanoat korxonalari havoni ifloslantiruvchi ko'plab moddalar ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida har yili 637,6 ming tonna zararli moddalar hosil bo'lib, shundan 97,2% i ushlab qolinadi. Atmosferaga tashlanadigan

zararli moddalar miqdori 51,7 ming tonnani, tozalash uskunalarining ishlash samaradorligi esa 92,9% ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yillardagiga nisbatan 1,9 % ga oshib, tashlanadigan zararli moddalarning asosiy miqdori (94%) yirik sanoat korxonalariga to‘g‘ri keladi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasi korxonalarida gaz yoqishda hosil bo‘ladigan azot oksidlarini tozalash inshootlarini loyilash ko‘zda tutilgan, ammo ushbu moddalarning me’yoridan yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Viloyatda sanoat va maishiy chiqindilarning yillik hajmi 2,5 million tonnadan oshiq bo‘lib, 43,5 million tonna chiqindilar to‘planib qolgan. Shundan yiliga 62 ming sanoat chiqindisi, 46 ming tonna maishiy chiqindilar qayta ishlanmoqda. Viloyatda 24,7 ming gektar yerning ustki qatlam strukturasi buzilgan bo‘lib, shundan 5,7 ming gektar yer rekultivatsiyani talab qiladi. Hozirgacha 2,1 ming gektar (37%) yer rekultivatsiya qilingan.

Korxona Respublikadagi o‘simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy vositalarni tayyorlovchi yagona korxona bo‘lib, uning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining kimyoviy vositalarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. 1996-yil dekabr oyida Fransiyaning "Speyshim" firmasi bilan hamkorlikda yillik quvvati 10 ming t bo‘lgan fozalon ishlab chiqarish liniyasi ishga tushirildi, mevali ekinlardagi o‘simlik biti, kana, kolorado ko‘ng‘izi va boshqa zararkunandalarni yo‘qotishda qo‘llaniladigan fozalon insek-toakaridsidini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiddi.

Xulosalar.

1.Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishi, xususan kimyoviy korxonalari bilan Respublikada o‘z o‘rniga ega bo‘lib,hududdagi sanoat korxonalarida turli kimyoviy moddalar ya’ni, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o‘g‘itlar, polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlari ishlab chiqariladi va bularning barchasi atmosfera havosiga ta’sir qiladi.

2. Kimyo sanoatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, shu sohaga taalluqli korxonalar bir-birlariga uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritib, bir korxona faoliyati natijasida hosil bo‘lgan oraliq mahsulotlardan boshqa korxonalar foydalanishi mumkin bo‘ladi.

3 Kimyo sanoatining rivojlanishi bilan xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish ham sezilarli darajada o‘sib, bu o‘z-o‘zidan aholi turmush farovonligining yuksalishiga hamda atmosfera tarkibining yomonlashishiga olib keladi.

4. Sanoat chiqindilarini qayta ishlashning ekologik xavfsizlikka ta'siri katta ahamiyatga ega bo‘lib, chiqindilarni qayta ishlash nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki resurslarni tejash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

5. Sanoat chiqindilarini qayta ishlashda ilmiy izlanishlar va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini yanada ekologik toza va samarali qilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bai R.(2018). Plastic Waste Recycling and its Environmental Impact. Environmental Science & Technology, 52(4), 1234-1245.
2. Elhaddad, M. (2017). Biological Treatment of Organic Waste: A Sustainable Approach. Waste Management, 58, 112-120.
3. Ma Y.et al. (2019). Innovative Recycling Technologies for Industrial Waste. Journal of Environmental Engineering, 45(1), 65-77.
4. O‘Brien L. (2015). Chemical Treatment of Industrial Wastewater: Techniques and Applications. Environmental Chemistry, 33(2), 98-110.
5. Sultonov, T., & To‘xtayev, M. (2016). Sanoat chiqindilarini qayta ishlashning biologik usullari. Tabiat va ekologiya, 12(4), 45-60.
6. Raxmatov, U., & Ismailov, S. (2018). Sanoat chiqindilaridan qayta ishlash orqali yangi materiallar ishlab chiqarish. Sanoat va texnologiyalar, 7(3), 85-98.
7. Zhang X. (2016). Separation Technologies for Industrial Waste: A Review. Journal of Industrial Waste Management, 39(3), 244-256.
8. BMT Asosiy omillar.Toshkent,2001 yil.
9. BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha strategiyasi.-T., 2007.
10. Shamsidinova G.D. Barqaror taraqqiyot ta’limi, darslik, T. 2023 yil, 365 b.
11. Internet materiallari.

MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH

Omongeldiyeva Maya Annageldiyevna

TerDPI 1 kurs magistranti, Rus tili va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy manfaatlar va umumbashariy muammolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning uyg'unlashuv jarayoni hamda zamonaviy xalqaro munosabatlarda milliy qadriyatlar, xavfsizlik va taraqqiyot omillarining o'rni tahlil qilinadi. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda global muammolarga yondashish — bu nafaqat davlat siyosatining asosi, balki insoniyatning umumiy istiqbolini belgilovchi strategik yo'nalish sifatida baholanadi. Maqolada O'zbekiston misolida ushbu yondashuvning amaliy ifodasi va xalqaro maydondagi roli yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy manfaatlar, umumbashariy muammolar, globallashuv, xavfsizlik, barqarorlik, xalqaro hamkorlik, taraqqiyot, diplomatiya*

Kirish: Hozirgi globallashuv sharoitida milliy manfaatlar va umumbashariy muammolar o'rtasidagi munosabat masalasi har qachongidan ham dolzarb tus olmoqda. Dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jarayonlar biror davlatning ichki siyosatidan ajralgan holda kechmaydi. Har bir mamlakat o'z milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, insoniyatning umumiy muammolarini hal etishda ham mas'uliyatli ishtirok etishi zarurligini anglab yetmoqda. Chunki hozirgi zamonda bir mamlakatda yuzaga kelgan inqiroz yoki tabiiy ofat, pandemiya, iqtisodiy beqarorlik boshqa davlatlarga ham tezda ta'sir ko'rsatadi.

Milliy manfaat deganda, davlatning o'z hududi, aholisi, iqtisodiy resurslari, madaniy qadriyatlari va siyosiy mustaqilligini asrab-avaylashga qaratilgan asosiy maqsadlar tushuniladi. Bu manfaatlar har bir davlatning ichki siyosiy barqarorligi va tashqi aloqalarini belgilaydi. Shu bilan birga, umumbashariy muammolar — ya'ni iqlim o'zgarishi, ekologik xavfsizlik, kambag'allik, pandemiyalar, migratsiya va terrorizm kabi tahdidlar butun insoniyat uchun umumiy xavf tug'diradi. Demak, milliy manfaatlar va global muammolar bir-biriga zid emas, balki ular uyg'unlashganda haqiqiy taraqqiyot yuz beradi. O'zbekiston misolida bu jarayonni yaqqol ko'rish mumkin. So'nggi yillarda mamlakat tashqi siyosatida "ochiqlik" va "hamkorlik" tamoyillariga asoslanib, milliy manfaatlar bilan global masalalar o'rtasida muvozanat saqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan xalqaro tashabbuslar, xususan, Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar hududiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlikni ta'minlashga doir sa'y-harakatlar, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash tashabbuslari bunga yaqqol misoldir. Bu tashabbuslar milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda global xavfsizlik va barqarorlikka hissa qo'shishning amaliy ifodasidir. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar ham milliy siyosatni global

maqsadlar bilan uyg‘unlashtirishni zarurat deb bilmoqda. BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030” (Sustainable Development Goals – SDGs) dasturi aynan shunday yondashuvga asoslanadi. Unga ko‘ra, har bir mamlakat o‘z milliy siyosatini insoniyatning umumiy farovonligi yo‘lida olib borishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy manfaatlar faqat ichki siyosat yoki iqtisodiy foyda bilan cheklanmay, balki xalqaro barqarorlik va tinchlikka hissa qo‘shishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy dunyoda milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish davlat siyosatining yangi modeliga aylandi. Endi davlatlar o‘z manfaatlarini ilgari surar ekan, global mas’uliyatni ham e’tiborga olishi talab etiladi. Misol uchun, ekologik siyosatda energiya samaradorligini oshirish yoki qayta tiklanadigan manbalardan foydalanish — bu nafaqat milliy iqtisodiy manfaat, balki butun insoniyatning ekologik xavfsizligiga xizmat qiluvchi chora hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Milliy manfaatlar va umumbashariy muammolar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik so‘nggi yillarda ko‘plab siyosatshunoslar, iqtisodchilar va xalqaro munosabatlar bo‘yicha tadqiqotchilar e’tiborini tortgan mavzulardan biridir. Globallashuv jarayonlari kuchaygan sari milliy siyosatni global darajadagi muammolardan ajratib bo‘lmaydi. Masalan, J. Nye va R. Keohane o‘zlarining “Power and Interdependence” asarlarida davlatlararo o‘zaro bog‘liqlik sharoitida milliy manfaatlarni ilgari surish endi izolyatsiyada emas, balki global kontekstdagi hamkorlik orqali amalga oshirilishi zarurligini ta’kidlaydilar [1]. Ularning fikricha, zamonaviy dunyoda “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi milliy manfaatlarni global mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Shunga o‘xshash tarzda, BMTning sobiq bosh kotibi Kofi Annan insoniyatning umumiy muammolariga befarq bo‘lgan har qanday davlat oxir-oqibat o‘z milliy xavfsizligini ham xavf ostiga qo‘yishini qayd etgan [2]. Shu bois milliy siyosatni global barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish davlat siyosatining muhim tamoyiliga aylangan.

Markaziy Osiyo kontekstida ham bu masalaga jiddiy e’tibor berilmoqda. Tadqiqotchi D. Satpayev Markaziy Osiyo davlatlarining milliy manfaatlari va mintaqaviy xavfsizlik siyosatini tahlil qilarkan, O‘zbekistonning tashqi siyosatida muvozanatli yondashuv — milliy manfaatlar bilan global barqarorlikni uyg‘unlashtirish modeli shakllanayotganini ta’kidlaydi [3]. Unga ko‘ra, O‘zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik, mintaqaviy hamkorlik va barqaror rivojlanish tamoyillari davlatning ichki va tashqi siyosatini uyg‘unlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yana bir muhim yondashuvni Xalqaro munosabatlar bo‘yicha mutaxassis Samuel Huntington “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarida ilgari surgan bo‘lib, u global siyosatdagi asosiy ziddiyatlar ideologik yoki iqtisodiy emas, balki madaniy va sivilizatsion xarakter kasb etishini ta’kidlagan [4]. Shu nuqtai nazardan, har bir millat o‘z madaniy va tarixiy qadriyatlaridan kelib chiqib, global muammolarga yondashishi lozim. Bu, o‘z navbatida, milliy manfaatlarni xalqaro muloqot va hamkorlik orqali ifoda etishning samarali yo‘li hisoblanadi. O‘zbekistonlik olimlardan A. Muminov va Sh. Toshpulatovlar o‘z tadqiqotlarida milliy manfaatlarning barqaror rivojlanish strategiyasidagi o‘rnini yoritib, davlat siyosatida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligining zarurligini

asoslab berishgan [5]. Ularning fikricha, milliy manfaatlarni xalqaro barqarorlik maqsadlari bilan muvofiqlashtirish O‘zbekistonning tashqi siyosatida ustuvor yo‘nalishga aylangan.

Tahlil va Natijalar

Globallashuv jarayonida milliy manfaatlar bilan umumbashariy muammolar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tobora kuchayib bormoqda. Har bir davlat o‘zining iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik manfaatlarini himoya qilgan holda, insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan muammolarga ham befarq bo‘la olmaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmay, o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda global muammolarga yondashishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. Shu jihatdan, milliy manfaatlar asosida umumbashariy muammolarga yondashish nafaqat mamlakat ichki barqarorligini ta’minlaydi, balki xalqaro miqyosda tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga hissa qo‘shadi. O‘zbekistonning global muammolarga yondashuvida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ekologik xavfsizlik, demografik jarayonlar va ta’lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik muammolar bugun milliy manfaatlarga bevosita ta’sir etuvchi omilga aylangan. Orol dengizi fojeasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu sababli, O‘zbekiston ekologik barqarorlikni milliy xavfsizlik masalasi darajasiga ko‘tardi. Bu esa, o‘z navbatida, global ekologik siyosat doirasida O‘zbekistonning faol ishtirokini taqozo etmoqda.

Quyidagi **1-jadvalda** O‘zbekistonning so‘nggi yillarda global ekologik tashabbuslardagi ishtiroki va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi keltirilgan:

Yil	Orolbo‘yi hududlarini rekultivatsiya qilish uchun ajratilgan mablag‘ (mln $)	Yashil energiya ulushi (%)	Suv resurslaridan samarali foydalanish darajasi (%)
2020	45.2	8.4	71
2021	52.7	10.1	74
2022	61.3	12.8	77
2023	73.5	15.6	80
2024	82.9	18.3	83

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston ekologik tashabbuslarni amalga oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiy barqarorlikni ham saqlab qolishga intilmoqda. Bu milliy manfaatlarning umumbashariy maqsadlar bilan uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning milliy manfaatlaridan biri sifatida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada aholining turmush darajasini oshirish, kambag‘allikni kamaytirish, bandlikni ta’minlash, sog‘liqni saqlash va

ta'lim tizimini rivojlantirish orqali barqaror jamiyatni shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda aholi farovonligi ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

Yil	Aholi jon boshiga YAIM (AQSH dollarida)	Bandlik darajasi (%)	Kambag'allik darajasi (%)
2020	1980	90.1	11.6
2021	2105	91.3	10.2
2022	2257	92.8	9.4
2023	2440	93.6	8.8
2024	2595	94.2	8.1

Mazkur ma'lumotlar O'zbekiston milliy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini, aholi turmush darajasining yaxshilanishini va global ijtimoiy muammolarga mos yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihat – bu madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdir. Umumbashariy muammolarni hal etishda madaniy diplomatiya va xalqaro hamkorlikning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston xalqaro maydonda tolerantlik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik tamoyillariga sodiq qolgan holda, dunyo mamlakatlari bilan o'zaro ishonchga asoslangan muloqotni yo'lga qo'ygan. Bu yondashuv nafaqat ichki tinchlikni ta'minlaydi, balki mintaqaviy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ta'lim va fan sohasidagi yondashuvlar ham milliy manfaatlar bilan global maqsadlarni uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, yoshlarni global fikrlashga o'rgatish, ilm-fanni innovatsion yo'nalishga yo'naltirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonlik yoshlarning xalqaro olimpiadalar, grant dasturlari va ilmiy loyihalarda faol ishtiroki mamlakatning global intellektual maydondagi raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Bu o'rinda milliy qadriyatlar asosida umumbashariy g'oyalarni singdirish juda muhim. Chunki milliy manfaatlardan chetga chiqmagan holda, insoniyat umumiy qadriyatlarini e'tirof etish xalqning madaniy barkamolligini va global hamkorlik ruhini mustahkamlaydi. O'zbekistonning "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan siyosati bu borada muhim o'rnakdir. Shu bilan birga, xalqaro xavfsizlik masalalari ham milliy manfaatlarga bevosita daxldor. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, kiberxavfsizlik kabi global tahdidlar mamlakat ichki barqarorligiga xavf tug'diradi. Shu sababli, O'zbekiston bu masalalarda ham global hamjamiyat bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Mamlakatning BMT, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar bilan hamkorligi bu yo'nalishda samarali natijalar bermoqda. Umuman olganda, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish O'zbekistonning tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy strategiyasining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda. Bu yondashuv mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirish bilan birga, milliy o'zlikni saqlash, barqaror taraqqiyotga erishish va global muammolarga konstruktiv yechim topish imkonini beradi.

Xulosa

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish zamonaviy xalqaro munosabatlarning eng muhim tamoyillaridan biridir. Bugungi globallashuv davrida har bir davlat o‘z manfaatlarini himoya qilgan holda, insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan global masalalarda faol ishtirok etishi zarur. O‘zbekiston misolida bu yondashuvning amaliy ifodasi yaqqol ko‘zga tashlanadi — mamlakat o‘zining milliy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va siyosiy strategiyasiga tayanib, dunyo miqyosida barqaror rivojlanish, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan siyosat yuritmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ekologik barqarorlik, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy adolat va ta’lim sohasidagi rivojlanish orqali milliy manfaatlarini global taraqqiyot yo‘nalishlariga uyg‘unlashtirib bormoqda. Ayniqsa, Orolbo‘yi hududlarini tiklash, yashil energiya ulushini oshirish, kambag‘allikni kamaytirish va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish yo‘lidagi tashabbuslar milliy va umuminsoniy manfaatlar kesishmasining yorqin namunalaridir. Milliy manfaatlar asosidagi bunday yondashuv mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlaydi, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlaydi hamda O‘zbekistonni global miqyosdagi ijobiy o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shuningdek, bu siyosat xalqaro maydonda O‘zbekistonning “Inson qadri uchun” tamoyiliga sodiqligini va tinchlik, barqarorlik hamda hamkorlik ruhini yuksak qadrlashini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Nye, J. & Keohane, R. (2011). *Power and Interdependence*. Longman.
[2] Annan, K. (2000). *We the Peoples: The Role of the United Nations in the 21st Century*. United Nations Publications.
[3] Satpayev, D. (2019). *Central Asian Regional Security: Balancing National and Global Interests*. Almaty University Press.
[4] Huntington, S. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. Simon & Schuster.
[5] Muminov, A., & Toshpulatov, Sh. (2022). *Milliy manfaat va barqaror rivojlanish strategiyasi: O‘zbekiston tajribasi*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
[6] Giddens, A. (1991). *Modernity and Self-Identity*. Polity Press.
[7] Usmonov, M. (2023). *Milliy manfaat va global xavfsizlikning uyg‘unligi masalalari*. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali.
[8] Qodirova, I. (2024). *O‘zbekiston tashqi siyosatining yangi konsepsiyasi va global mas’uliyat*. Tashqi siyosat tahliliy byulleteni.
[9] Sachs, J. (2015). *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press.
[10] Rasulov, Sh. (2021). *Orolbo‘yi mintaqasi ekologik muammolarining xalqaro o‘lchamlari*. Toshkent: Ekologiya instituti nashriyoti.

PEDAGOGIK REFLEKSIYA — O'QITUVCHI KASBIY RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA

G'ayratova Nargiza Bahodir qizi
Toshkent shahridagi Webster universiteti bitiruvchisi
gayratovanargiza6@gmail.com

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy o'sishi, shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda o'qituvchining o'z faoliyatini anglay olishi, tahlil qilishi va xulosalar chiqarish qobiliyati alohida o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik refleksiya o'qituvchining kasbiy shakllanishi, o'z ustida ishlashi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga moslashishida muhim omildir.

Asosiy qism

Refleksiya tushunchasi ilm-fan tarixida bir necha bor turlicha talqin qilingan. J. Dyui uni o'qituvchining o'z faoliyatini ongli tahlil qilishi va xulosalar chiqarish jarayoni sifatida talqin etgan. Keyinchalik D. Shon, D. Kolb, S. Brookfield singari tadqiqotchilar refleksiyani kasbiy rivojining markaziy komponenti deb bilishgan. Ularning fikricha, o'qituvchi o'z faoliyatiga refleksiv yondashmasa, o'zining o'quvchilarga ta'sirini anglamaydi, xatolarini aniqlamaydi va ularni bartaraf eta olmaydi.

O'zbekiston olimlari orasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. J. Yo'ldoshev, O. Hasanboyeva, N. Abdurahmonova kabi tadqiqotchilar pedagogik refleksiyani o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, dars samaradorligini tahlil qilish va o'z faoliyatini takomillashtirish vositasi sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, refleksiya o'qituvchining o'z ishini tahlil qilish, baholash, natijalarni solishtirish va kelgusi faoliyatni rejalashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Pedagogik refleksiya uch bosqichda kechadi: birinchisi – tahlil bosqichi, bu jarayonda o'qituvchi o'z darsini, o'quvchilarning reaksiyalarini va o'zining pedagogik qarorlarini kuzatadi; ikkinchisi – baholash bosqichi, bunda o'z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi; uchinchisi – takomillashtirish bosqichi, bu bosqichda esa o'qituvchi yangi

metodlarni sinab ko‘radi, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtiradi va o‘z faoliyatini yangicha yondashuv asosida qayta tashkil etadi.

Refleksiv yondashuv o‘qituvchidan muntazam o‘z ustida ishlashni, yangilikka ochiqligini va o‘z xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishni talab etadi. Shuningdek, refleksiya jarayoni o‘qituvchining shaxsiy o‘sishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. U o‘z faoliyatining mohyatini chuqur anglaydi, o‘z imkoniyatlarini baholaydi va o‘zining ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi. Bu esa o‘qituvchini o‘z kasbiga yanada mehr bilan yondashishga, o‘quvchilarga individual yondashuvni shakllantirishga undaydi.

Odatiy hayotda ko‘p hollarda o‘qituvchilar refleksiyani sezmagan holda bajaradilar. Masalan, darsdan keyin “Qanday o‘tgan bo‘ldi?”, “Qaysi mashg‘ulot yaxshi natija berdi?” kabi savollarni berishning o‘zi refleksiyaning boshlang‘ich shakli hisoblanadi. Ammo, bu jarayon tizimli ravishda olib borilsa, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida sezilarli natija beradi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun refleksiv tahlil mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘zaro tajriba almashish va tahliliy suhbatlar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pedagogik refleksiya o‘qituvchining kasbiy o‘sishi, metodik mahoratini rivojlantirish hamda shaxsiy yetuklikka erishishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv o‘qituvchini faqat dars o‘tuvchi emas, balki o‘z faoliyatini doimo tahlil etuvchi va rivojlanuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida refleksiya madaniyatini shakllantirishga e’tibor berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1933). How We Think. Boston: D.C. Heath.

2. Schön, D. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.

3. Kolb, D. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall.

4. Brookfield, S. (1995). Becoming a Critically Reflective Teacher. Jossey-Bass.

5. Yo‘ldoshev J. G. (2016). Pedagogik tafakkur asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

6. Hasanboyeva O. (2018). Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda refleksiyaning o‘rni. Toshkent: TDPU.

7. Abdurahmonova N. (2020). Zamonaviy o‘qituvchi modeli va refleksiv yondashuv. Ta’lim innovatsiyalari jurnali, №2.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

O‘ZBEK FANTASTIK ASARLARIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR (OTABEK QUVVAT ASARLARI MISOLIDA)

Abdurayimova O‘g‘iloy,
JDPU o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: Gulbahor Qurbonova,
JDPU katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek fantastik asarlarida didaktika elementlarining ustuvorligi va o‘quvchilar uchun ibrat bo‘ladigan axloqiy-tarbiyaviy tushunchalar haqida so‘z boradi. Shuningdek, shoir va yozuvchi Otabek Quvvatning sarguzasht-fantastik qissalaridagi axloqiy-tarbiyaviy qarashlari tahlil qilingan.

Abstract. The article discusses the predominance of didactic elements and the moral-educational aspects that serve as role models for students in Uzbek fantastic works. Furthermore, the moral-educational views found in the adventure-fantastic novellas of the poet and writer Otabek Quvvat are analyzed.

Аннотация. В статье рассматривается преобладание дидактических элементов и морально-воспитательные аспекты, служащие образцом для учеников в узбекских фантастических произведениях. Кроме того, анализируются морально-воспитательные взгляды, содержащиеся в приключенческо-фантастических повестях поэта и писателя Отабека Куввата.

Kalit so‘zlar: fantastika, didaktika, axloqiy-tarbiyaviy, koinot, yulduzlar olami, ma’naviy rahnamo, donishmand, yaxshilik.

Keywords: fantasy, didactics, moral and educational values, universe, world of stars, spiritual mentor, sage, goodness.

Ключевые слова: фантастика, дидактика, нравственно-воспитательные ценности, космос, мир звёзд, духовный наставник, мудрец, добро

Adabiyot o‘z ixlosmandlarining tafakkurini shakllantirish, axloqiy qarashlarini rivojlantirish va ma’naviy olamini boyitishda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, real hayotiy hodisalar badiiy to‘qima va tasavvur elementlari bilan uyg‘unlik hosil qiluvchi fantastika janri faqatgina fazoviy kemalar, aqlli robotlar, xayoliy sarguzashtlar bilangina cheklanib qolmay, yosh avlodni mustaqil fikrlashga, zamonaviy kasblarni o‘rganishga va madaniy-axloqiy qadriyatlarni anglashga yo‘naltiradi. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonov “Fantastik asarning ilmiy bazasi har qanday ilmiy taxminotdan keyin

turmaydi, ilm fanning taraqqiyoti uchun birinchi navbatda xizmat qiladi va odamni shu yo'lda xayol qilishga chorlaydi"[12], -deya bu janr xususiyatini yanada konkretlashtiradi.

Shoir va yozuvchi Otabek Quvvat "Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida", "Ulug'bek yulduzlar saltanatida" kabi fantastik asarlari bilan o'zbek adabiyotidagi bu janr rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Bu ikki asar bir-biri bilan mantiqan bog'langan bo'lib, "Olimjonning sarguzashtlari" uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev yozgan so'z boshisida shunday deydi: "Yozuvchi Otabek Quvvatning "Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida" asari o'zbek xalq ertaklari asosida, qisman fantastika janrida yozilgan… Birovning bolasini birov tarbiyalamasin, degan hazilnamo gaplar ham bejizga aytilmagan. Shu ma'noda yosh yozuvchi Otabek Quvvatning ushbu asarini o'z vaqtida yozilgan asarlardan biri deb hisoblayman".[13]

Jahon adabiyotidagi fantastik adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda uzoq koinotdagi sirli tilsimotlar, aql bovar qilmas kashfiyotlar, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan sarguzashtlar-u zamonlar osha sayohatlar o'quvchi hayratiga sabab bo'lsa, o'zbek fantastik asarlari yuqoridagilar bilan birgalikda tarbiyaviy-axloqiy qarashlarning uyg'unlashgani bilan ajralib turadi.

Xususan, Otabek Quvvatning asarlarida ham xuddi shunday sharqona didaktik ruh ustuvorlik qiladi. Ijodkor har ikki qahramoni: Olimjon va Ulug'bek uchun ham dastavval "ma'naviy rahnamo"ni tanlab oladi. "Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida" Olimjon uchun ustoz uning donishmand amakisi – Qobilboy. Bu inson sharqshunos olim bo'lib, Olimjon uchun barcha tilsimlarning kaliti, qishloq ahli uchun Qobil donishmand. Uning chinakam donishmand ekanligini asarda uning tilidan aytilgan quyidagi purma'no hikmatlardan ham bilishimiz mumkin: "Tarixda o'tgan barcha allomalarni, sarkarda-yu qahramonlarni, qaysi millat, elat vakili bo'lishidan qat'i nazar, yagona bir sabab bog'lab turadi. Bu – ilm, zakovat va yuksak iste'dod"[14] yoki "Kimgaki

[12] Matyoqub Qo'shjonov. Adabiy tanqidiy maqolalari. www.ziyouz.uz
[13] Otabek Quvvat. Olimjonning sarguzashtlari: sarguzasht-fantastik qissalar. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2017. 3-b.
[14] Otabek Quvvat. Olimjonning sarguzashtlari: sarguzasht-fantastik qissalar. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2017. 26-b.

yordaming kerak bo‘lsa, also o‘ylanmay yaxshilik qil. Zero, har bir ishda Yaratganning hikmati bor”.[15]

Yozuvchi asarda Qobil amaki obrazi gardaniga quyidagi asosiy 3 ta vazifani yuklaydi:

1. Olimjonni ilm o‘rganishga undovchi, uni fantastik sarguzashtlar sari dadil harakatlantiruvchi inson.
2. Asar syujetini boshidan oxirigacha birlashtirib turuvchi qahramon.
3. Ijodkorning o‘quvchilar ongiga singdirmoqchi bo‘lgan didaktik qarashlari va purma’no hikmatlarini yetkazib beruvchi donishmand.

Asarda Qobil amakining nutqi orqali tarbiyaviy-axloqiy qarashlar to‘g‘ridan to‘g‘ri aytib o‘tilgan bo‘lsa, joy nomlarining “Bag‘ritoshlar diyori” va “Mehribonlar o‘lkasi” kabi nomlanishi, To‘qsonboy boboning yaxshiliklari, zamonlar osha qilingan sayohatdagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi to‘qnashuvlar orqali bunday qarashlar o‘quvchi ongiga zimdan singdirib boriladi. Xususan, “Yo‘qolgan sarhad: zamon va makon oralig‘ida” bo‘limidan insonning qilgan har bir yomonligi javobsiz, yaxshiligi esa savobsiz qolmasligi, beg‘araz uzatilgan yordam qo‘li kun kelib kutilmagan yaxshilik bo‘lib qaytib kelishi, Qadimgi Rimga bo‘lgan sayohatdan esa har bir insonning oliy xilqat ekanligi, uni xo‘rlash va azoblash eng og‘ir gunoh sanalishi kabi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Otabek Quvvatning “Ulug‘bek yulduzlar saltanitida” nomli sarguzasht-fantastik qissasi qahramoni Ulug‘bekni ilm olishga undovchi, yaxshi va yomonni farqlashni o‘rgatuvchi, ahillik va bardamlikka chorlovchi inson uning bobosi – Olloqul bobo. Asarda “Bobomning o ‘gitlari” bo‘limi to‘laligicha pand-nasihat ruhida yozilgan. Unda ozodalik, ahillik, shukur va sabr, ilm o‘rganish, iymon, vaqt qadri kabi turli mavzulardagi Olloqul boboning nasihatlari jamlangan. Ahamiyatlisi shundaki, ijodkor 12-13 yoshli bolalar anglashi qiyin bo‘lgan iymon, sabr, shukur kabi tushunchalarga Olloqul bobo tilidan sodda va ravon ta’rif berar ekan ularni anglash har qanday yoshdagi kitobxonga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Misol uchun iymonni daraxtga o‘xshatgan holda bobo nabirasiga shunday nasihat qiladi: “Iymon daraxti, bolajonim, yuraklarda o‘sadi. Iymon bu – Xudoyimga ishonmog‘ing va u buyirgan amallarni ado etmog‘ingdir. U bizni ilm olish, odamlarga yaxshilik qilish, toza va pok

[15] Otabek Quvvat. Olimjonning sarguzashtlari: sarguzasht-fantastik qissalar. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2017. 41-b.

yurish, doimo yurtni sevib, uning tinchligi uchun kurashishga, hamisha ogoh bo‘lishga buyuradi”.[16]

Ko‘pgina fantasik asarlarda ko‘rishimiz mumkinki, koinot, undagi sayyoralar va yulduzlar haqida aniq faktlar, ilmiy dalillar yoki fantastik ma’lumotlar ham keltiriladi. Albatta, bular o‘quvchiga ma’lum bir joy yoki davr koloritini his qilishga yordam beradi. Otabek Quvvat esa koinot haqida xuddi shunday faktlar, qiziqarli ma’lumotlar bilangina cheklanib qolmay fazoviy jismlar haqidagi xalq og‘zaki ijodiyotidagi afsonalarga ham murojaat etadi. Xususan, Zuhro va Yetti qaroqchi yulduzlari haqida Ulug‘bek tilidan bayon qilingan afsonalar orqali uning do‘stlari va o‘quvchilarga sadoqat, vafo, mardlik kabi hislatlarni singdirish maqsad qilingan bo‘lsa ajab emas.

Ulug‘bekning koinotga qilgan sayohati orqali ijodkor o‘quvchilarga “yulduzlar olamini bir qadar yaqinlashtirish”i asnosida ularni bilim olish, dono ajdodlarga munosib bo‘lish va ularning ezgu ishlarini davom ettirishga undaydi.

Har ikki sarguzasht-fantastik qissalarni o‘qir ekanmiz ularga singdirilgan didaktik qarashlarni anglagan holda adabiyotshunos olim Izzat Sultonning: “Adabiyotning hayotda o‘ynaydigan roli, avvalo, insonni tarbiyalashdan iborat. U insonlarning ma’naviy kamolotiga, ularning tafakkurining chuqurlashuviga xizmat qiladi”[17], degan fikrlari orqali har qanday badiiy asar, qaysi janrda yozilishidan qat’i nazar, o‘zida inson ruhiyatini tarbiyalash vasifasini ham mujassam etmog‘i darkor degan xulosaga kelamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. — Тошкент: ЎҚИТУВЧИ, 1986. — 404 б.
2. Matyoqub Qo‘shjonov. Adabiy tanqidiy maqolalari.
3. Otabek Quvvat. Olimjonning sarguzashtlari: sarguzasht-fantastik qissalar. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2017. -200 b.
4. Otabek Quvvat. Ulug‘bek yulduzlar saltanatida. Mutolaa ilovasidan

[16] Otabek Quvvat. Ulug‘bek yulduzlar saltanatida. Mutolaa ilovasidan
[17] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. — Тошкент: ЎҚИТУВЧИ, 1986. 52-b.

Modern Approaches to the Analysis of Human Adaptation Mechanisms under Chemical Exposure (Analytical Review)

Abdulloyeva Mohinur – Samarkand district secondary school 43

Abstract. This analytical review explores modern theoretical and experimental approaches to understanding human adaptation mechanisms under chemical exposure. The study emphasizes the dynamic nature of homeostasis, highlighting the body's capacity for self-regulation, compensation, and resilience against xenobiotic-induced stress. Drawing on the functional systems theory of P.K. Anokhin, the concept of adaptation is interpreted as a multi-level process involving feedback regulation, energy expenditure, and reserve mobilization. The review integrates classical physiological theories (Anokhin, Selye, Hensel) with modern concepts in bioenergetics and toxicology, demonstrating how acute and cumulative adaptations occur through restructuring of cellular and systemic processes. Particular attention is given to detoxification pathways, including metabolic biotransformation and enzymatic mechanisms, which ensure the neutralization and excretion of xenobiotics. The findings highlight that adaptation to chemical factors is an energy-intensive but vital process, ensuring survival through continuous interaction between regulatory systems, functional reserves, and environmental variables.

Keywords: Human adaptation, xenobiotics, chemical exposure, homeostasis, functional reserves, feedback regulation, detoxification, physiological systems, bioenergetics, toxic stress

A pressing issue in constructing mathematical models that take into account the complex of external environmental influences on humans and the body's response systems associated with organ restructuring is the consideration of the body's potential for adaptation and self-healing. In this regard, it is advisable to study the mechanism of adaptation to xenobiotics [Sidorina, Lukovnikova, Frolova, 2004] and, if possible, assess the body's resistance to toxic load.

Currently, there are many different approaches to assessing human health and its adaptive capacity [Hensel, 1947; Selye, 1959]. According to the Russian physiologist [Anokhin, 1975, 1980], "every organism is a dynamic combination of stability and variability, in which variability serves its adaptive reactions and, consequently, the protection of its hereditary constants." The physiological meaning of the organism's adaptation to external and internal influences lies precisely in maintaining homeostasis and, accordingly, the viability of the organism under virtually any conditions to which it is able to adequately respond. Maintaining homeostasis is the most important property of the organism, determining acclimatization and adaptation to various industrial and living conditions.

According to the concept of P.K. Anokhin, who most fully developed the theory of functional systems, the components participating in the construction of one system necessarily have limited degrees of freedom for their participation in another. At the same

time, the functional system "strives" to achieve a programmed result and, to achieve this, can undergo the greatest perturbations in the interactions of its components. The formation of the system is accompanied by the involvement of an ever-increasing number of necessary energetic and structural components. Thus, this theory defines the body's functional systems as self-regulating levels of the nervous and endocrine systems, whose actions are aimed at achieving specific adaptive results beneficial to the body.

The leading role in this self-regulation belongs to the so-called feedback loop—the reflex arc. In very schematic terms, this is: an afferent nerve fiber (a conductor that receives an impulse through a receptor), a nerve center (analyzer), and an efferent fiber, through which a command is sent from the center to the executive organ (for example, a muscle). The classical concept of the reflex arc is that of a trinomial element: affector—analyzer—effector. P.K. Anokhin supplemented it (the arc—author) with a fourth link—feedback afferentation. The latter performs, perhaps, the most important function from the point of view of survival (adaptation—author): it signals the center about the results of the action performed in response to some external (or internal) stimulus. To economize its actions, the center must know the result of the command it recently gave and, if something is wrong, correct it. In living organisms, feedback—as a purely adaptive mechanism—emerged at the dawn of the development of organic life, and then became entrenched in the course of evolution, since it carried colossal benefits for survival [Vorobyov, 2001]. Adaptation, first and foremost, is a change in the rates of biological reactions, which increase tens and hundreds of times in extreme situations [Kozinets, Pogorelov, 1988; Severtsov, 2005].

It should also be noted that "the constancy of the body's internal environment is not a set of fixed constants; homeostatic parameters, firstly, have some leeway (a reaction norm), and secondly, are in a dynamic equilibrium with fluctuations in environmental parameters." In fact, it is these two factors that determine the very possibility of our more or less successful existence in the external environment—the ability to resist it, which is quite aggressive for us, and strive for equilibrium with it. Adaptation is both the front and back sides of homeostasis, as it can be optimal, suboptimal, and even harmful—causing disruption to vital functions. Any type of pathology represents, according to G.N. Kassil, "a departure beyond the boundaries of homeostasis." This "exit" occurs differently in healthy and sick people, but is always accompanied by more or less pronounced pathological phenomena [Kassil, 1983].

G. Selye borrowed the idea of integrity and adaptation from I.P. Pavlov. The fact that external influences only lead to the expenditure and exhaustion of adaptive capabilities was Selye's conviction for many years, which he laconically formulated as "wear and tear." This conviction was based on the fact that he used predominantly strong pathogenic influences. The concept of the existence of a genetically predetermined growth potential originates from A. Weismann, who believed that "the zygote has the ability to carry out a certain and limited number of cell divisions, after which the developing organism is doomed to aging and death" [Selye, 1987]. Developing these ideas, R. Pearl came to the conclusion that "aging and death are the price paid for the advantages provided by specialization and differentiation of cells in multicellular organisms, in contrast to virtually immortal unicellular organisms, which do not possess these qualities" [Arshavsky, 1982, 1986].

Systems are adaptive if, when a change in their environment or internal state reduces their efficiency in performing their functions, they react or respond by changing their own state or the state of the environment so that their efficiency increases [Akoff, Emerly, 1974]. According to these authors, the term "adaptation" generally appears in three aspects: adaptation as the property of a system to adjust to possible changes in functioning; adaptation as the process of adaptation of an adaptive system; adaptation as a method based on the processing of incoming information and adapted to achieve a certain optimization criterion. In cybernetics, adaptation is the process of accumulating and using information in a system, aimed at achieving a certain, usually optimal, state or behavior of the system under initial uncertainty and changing external factors. During the adaptation process, the system accumulates data on these factors and determines their characteristics. Adaptation can be viewed as a process of self-learning of the system to new conditions (through "knowledge production"). The speed of adaptation (human self-learning) can be determined experimentally using cybernetic models, 120 bits/(person-hour) [Livshits, 1967]; or by expert assessment of the rate of knowledge accumulation by humanity, 103 bits/(person-year) [Naidenov, Dolgonosov, 2005]. The discrepancy between these estimates by several orders of magnitude demonstrates the limitations of the formal information approach to knowledge assessment (in isolation from the value of information). Adaptation, like the adaptive response, can occur at various levels: at the cellular level, in the form of functional or morphological changes; at the level of an organ or group of cells with the same function; at the level of the organism as a morphological and functional whole, representing the totality of all physiological functions aimed at preserving vital functions and life itself.

The development of most adaptive reactions can be divided into two stages: an initial stage of urgent but imperfect adaptation and a subsequent stage of perfect, long-term, or cumulative adaptation. Urgent adaptation is characterized by continuously occurring adaptive changes that arise as the body's response to continuously changing environmental conditions. V.V. Petrovsky and F.Z. Meerson and Pshennikova identified the following characteristic properties of urgent adaptation [Meerson, Pshennikova, 1988]:

1. Urgent adaptive changes are not fixed in the body. They arise only with a direct external influence of a certain nature and disappear immediately as soon as the external circumstance that caused them is removed.

2. The nature and intensity of the urgent adaptive reaction precisely correspond to the nature and strength of the external influence.

3. The body is capable of responding with urgent changes only to those external influences that, by their nature, strength, and duration of action, do not exceed physiological capabilities.

Cumulative adaptation is characterized by adaptive changes that arise under the influence of regularly repeated external influences. The properties acquired as a result of cumulative adaptation are stable and persist for some time after the cessation of a series of external influences. This is accompanied by significant morphological and functional transformations at the cellular level and in the activity of various body systems and their interactions.

Adaptive activity requires the expenditure of energy and information, leading to the concept of a "cost" of adaptation [Davydovsky, 1962], which is determined by the degree of stress on regulatory mechanisms and the magnitude of expended functional reserves.

For example, the reserve "capacity" of the circulatory system creates a safety margin in the event of inappropriate impacts on the body, thereby reducing its initial level of functioning. The body's ongoing activity is always associated with the expenditure of reserves, but they are also replenished. Therefore, not only the timely mobilization of reserves is essential, but also the appropriate stimulation of recovery and protection processes. Therefore, when discussing the RF of the circulatory system, it is necessary to comprehensively consider both myocardial-hemodynamic homeostasis and autonomic homeostasis [Aidaraliev, Baevsky, Berseneva, 1988]. The FR of an organ (system) can be defined as the difference between the organ's (system's) activity and the level characteristic of a state of relative rest. The higher the FR, the lower the degree of stress on the regulatory mechanisms required to adapt to environmental conditions to maintain homeostasis. The FR reserve consists of informational, energetic, and metabolic resources, the expenditure of which is accompanied by constant replenishment. The expenditure of FR occurs in the interests of maintaining the required level of functioning of the body's main systems. Thanks to the activity of regulatory mechanisms, the internal environment is restructured in accordance with external conditions. However, due to the nonlinear nature of homeostatic curves, there are only limited areas of external conditions where homeostasis can be maintained [Novosel'tsev, 1978]. Homeostatic relationships between internal environmental variables and external conditions vary, depending on both the individual characteristics of the organism and the specific nature of the perturbing factors.

It should be noted that the process of FR consumption depends on the degree of stress on regulatory mechanisms. In a simplified form, FR management can be thought of as regulating the rate of their consumption. In reality, this process is extremely complex, as the adaptive capabilities of various body structures and the dynamics of response to perturbing factors must be taken into account. It is necessary to constantly maintain the functioning of the main systems within homeostasis, predict the reserve of functional capacity, and promptly integrate additional FRs into the process.

At this stage, we can only schematically analyze the state of these mechanisms. The figure shows a diagram characterizing the hierarchy of functional interactions in a comprehensive approach to assessing the body's FR.

Each organ (system) of the body (a, b, c) has a certain level of functioning (UFa, UFb, UFv) and is provided by specific functional reserves, subdivided into operational (FR1a, FR1b, FR1v) and strategic (FR2a, FR2b, FR2v). Operational reserves are mobilized and expended by autonomous regulatory mechanisms (ARMs) (the sympathetic and parasympathetic divisions of the autonomic nervous system), while strategic reserves are mobilized and expended by central (CNS) (the CNS). Any environmental impact on the body primarily causes a stress response [Selye, 1936], which is expressed in an increase in the functioning of certain body systems. At the same time, regulatory systems are activated, mobilizing reserves. By monitoring the level of functioning (feedback) and controlling it (feedforward), regulatory systems expend reserves to ensure a homeostatic interaction between the systems involved in the response to the influencing factor. If autonomous mechanisms fail to maintain the required level of functioning of individual systems, the mobilization of strategic reserves is carried out by central regulatory mechanisms.

It is important to note the ability of central regulatory mechanisms to ensure compensatory reactions; i.e., when one system is deficient in reserves, they activate the expenditure of reserves by another, related system, which allows for the desired end result to be achieved through various means. Consequently, the constancy of the functioning level of one of the dominant systems under the influence of a given factor is accompanied by very significant physiological shifts in other, functionally related systems. This is due to the different RF of each system, as well as the processes of adaptation and compensation occurring with the direct participation of central regulatory mechanisms.

As mentioned earlier, the ability to adapt can be realized at various levels. Attempts are made to study adaptation mechanisms at the cellular level in the form of functional or morphological changes [Sidorina, Lukovnikova, Frolova, 2004]. When considering the impact of harmful chemical factors on the individual body, questions inevitably arise: to what extent can the human body withstand increasing chemical loads and what are its potential capabilities, what should be taken into account when searching for means of preventing and treating poisoning. To develop an understanding of adaptation to the effects of chemicals, knowledge of the intoxication process is necessary. Considering the intoxication process as the interaction of a poison and an organism, it can be conditionally divided into several stages: 1) the development of a complex of primary reactions of the organism to the introduction of a xenobiotic and its transportation to the points (targets) of interaction; 2) the development of the body's reactions caused by specific side effects of the chemical agent's interactions with the body's biological substrates (enzymes, mediators, membrane structures, etc.); 3) the formation of structural and functional pathological changes in tissues as a result of the insufficiency of primary adaptive responses; 4) the restoration and development of damage to the structure and functions of tissues, organs, and body systems.

Each of these stages corresponds to a certain set of genetically determined specific and general adaptive responses. Therefore, it is quite natural that, at any degree of intoxication, the development of adaptive responses in the body proceeds in two main directions: the actual detoxification of xenobiotics—oxidation, binding, and excretion—with the search for reserves to provide energy for these processes and covering the resulting energy deficit. The most effective adaptation mechanisms of the body, activated after xenobiotics enter its internal environment, are realized through the functioning of structural and biochemical systems capable of ensuring the rapid removal of the poison from its potential zone of action and from the body as a whole.

The first evidence of this mechanism is the fact that with increasing xenobiotic dose, the rate of its elimination from the body increases almost linearly.

Another important adaptation mechanism responsible for xenobiotic detoxification and elimination is the metabolic process [Taylor, 1987; Suzdalnitsky, Menshikov, Modera, 2000]. It has also been shown that the metabolic rate, judging by the rate of metabolite excretion in the urine, increases with increasing administered dose. However, this occurs up to a certain administered dose, after which the process of inhibition begins. The biotransformation of xenobiotics is a multi-stage process in which many detoxification enzymes (monooxygenases, transferases, hydrolases, etc.) participate simultaneously or

sequentially. The known reactions and enzyme systems that metabolize xenobiotics are conventionally divided into two types. One type of biotransformation of poisons combines molecular mechanisms whose action is localized in the cytosol, mitochondria, peroxisomes, and lysosomes. These mechanisms are realized mainly when water-soluble compounds enter the body. The other type of metabolism includes molecular mechanisms associated with the function of monooxygenase systems localized on the membranes of the endoplasmic reticulum, where two phases of lipophilic xenobiotic detoxification occur. The first phase results in the formation of metabolites containing nucleophilic groups that are biologically more active than the original molecule. These reactive biotransformation products undergo the second phase—the conjugation process. Realized as a single, precisely coordinated complex, both of these phases lead to increased hydrophilicity, decreased biological activity, and decreased toxicity of the molecules, and are easily removed from the body.

The results of the experiments revealed that increased resistance to the damaging effects of xenobiotics is achieved through significant restructuring of intracellular bioenergetic mechanisms. These changes are apparently triggered by the initial signs of intracellular energy deficiency resulting from chemical stress and the gradual accumulation of toxic, underoxidized endogenous substrates.

With chronic xenobiotic intake at doses and concentrations significantly below the lethal dose, especially at concentrations close to the threshold, the body's adaptive capacity is realized more effectively. Moreover, a cell with sufficient energy reserves and time to protect itself from harmful effects is able to utilize the most beneficial and optimal pathways and mechanisms of its functioning. Genetically determined individual sensitivity to environmental factors also plays a significant role in the development of resistance or increased sensitivity (risk) to xenobiotics.

Thus, when considering the problem of the body's adaptation to a harmful chemical factor, it should be emphasized once again that the state of any structural and functional system involved in the adaptation process to a xenobiotic must be considered both as an indicator of the harmful effect and as an indicator of the body's adaptability. There is a pressing need in toxicology for studying the mechanisms of human adaptation to xenobiotics, as well as for selecting objective criteria for the body's resistance to chemicals.

Adaptation to chemical exposure represents a complex, hierarchical process of self-regulation that involves the activation of functional reserves, feedback mechanisms, and metabolic restructuring. The human organism's ability to maintain homeostasis in toxic environments depends on the efficiency of both urgent and cumulative adaptive responses, ranging from cellular detoxification to systemic coordination. The analysis confirms that xenobiotic resistance is achieved through the integrated functioning of biochemical, neuroendocrine, and energetic systems, with detoxification enzymes and feedback control playing central roles. Furthermore, the balance between adaptation efficiency and energy cost determines the body's long-term stability and resilience. Future research should focus on quantifying adaptive potential and developing predictive models that integrate physiological, biochemical, and cybernetic parameters for assessing human resistance to chemical stressors.

Bibliography

Aidaraliev, A.A., Baevsky, R.M., Berseneva, A.P. (2008). Comprehensive Assessment of the Body's Functional Reserves. Frunze: Ilim, 1988. 195 p.

Ackoff R., Emerli F. On Goal-Oriented Systems. Moscow: Sov. Radio, 1974. 272 p.

Anokhin P.K. Essays on the Physiology of Functional Systems. Moscow: Meditsina, 1975. 477 p.

Anokhin P.K. Key Issues in the Theory of Functional Systems. Moscow: Nauka, 1980. 197 p.

Arshavsky I.A. Physiological Mechanisms and Patterns of Individual Development. Moscow: Nauka, 1982. 270 p.

Arshavsky I.A. Some Methodological and Theoretical Aspects of the Analysis of Patterns of Individual Development of Organisms // Voprosy filosofii. 1986. No. 11. pp. 95–104.

Vorobyov R.I. Medicine According to Darwin // Chemistry and Life. 2001. No. 2. pp. 44–48.

Davydovsky, I. V. The Problem of Causality in Medicine (Etiology). Moscow: State Publishing House of Medical Literature, 1962. 176 p.

Kassil, G. N. The Internal Environment of the Organism. Moscow: Nauka, 1983. 227 p.

Kozinets, G. I., Pogorelov, V. M. Conservatism of Biological Processes – Stability of Hematopoiesis // Clinical Lab Diagnostics. 1988. No. 12. pp. 21–32.

Livshits, V. M. An Experimental Study of Human Self-Learning Using a Discrete Finite Automaton Model: Cand. Sci. (Pedagogical Sciences) Dissertation. Leningrad, 1967.

Meerson, F. Z., Pshennikova, M. G. Adaptation to stressful situations and physical exertion. Moscow: Meditsina, 1988. 256 p.

Naidenov, V.I. Dolgonosov, B.M. Humanity will not survive without knowledge production // Nezavisimaya Gazeta. 1999-2007. URL:

http://www.ng.ru/science/2005-06-22/11_chelovechestvo.html (accessed: 10.05.2012).

Novosel'tsev, V.N. Control Theory and Biosystems. Analysis of Preservative Properties. Moscow: Nauka, 1978. 320 p.

Severtsov, A.S. Theory of Evolution. Moscow: Vlados, 2005. 380 p.

Selye, G. From Dream to Discovery: How to Become a Scientist? / translated from English. Moscow: Progress, 1987. 368 p.

Sidorina G.I., Lukovnikova L.V., Frolova A.D. Adaptation as a Basis for Protecting the Body from the Harmful Effects of Chemicals // Russ. Chemical Journal. 2004. Vol. 48, No. 2.

Suzdalnitsky R.S., Menshikov I.V., Modera E.A. Specific Changes in the Metabolism of Athletes Training in Different Bioenergetic Modes in Response to Standard Physical Load // Theory and Practice of Physical Culture. 2000. No. 3. pp. 16–20.

Hensel H. Grundbegriffe und neuere Aspekte der phy- siologischen Adaptation // In Kolloquien SFB 122. Marburg, 1947. Bd. 2. S. 1–8.

Selye. H. A Syndrome Produced by Diverse Nocuous Agents // Nature. July 4 (1936). Vol. 138. P. 32.

Selye H. Perspectives in Stress research // Perspectives in Biology and Medicine. 1959. Vol. II, N. 4. P. 408.

Taylor C.P. Structural and functional limits to oxidative metabolism: insight from scaling // Ann. Rev. Physiol. 1987. Vol. 49. P. 135–146.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕТОДЫ ЕГО ОРГАНИЗАЦИИ

Ташкентский государственный медицинский университет
к.т.н., доцент Икрамова З.А.

Аннотация. Соотношение вклада преподавателя и обучающегося в образовательный процесс было различным в разные периоды развития человечества, хотя когда-то лидерами были учителя, в определённые периоды инициативу проявляли ученики, и были изучены положительные и отрицательные стороны такой деятельности. Результатом кооперативного обучения является возникновение у учащихся новых идей и целей, связанных с сущностью осваиваемой деятельности, а также стремление к управлению позицией личности в партнёрстве. Метод кооперативного обучения следует рассматривать как систему совместных действий учителя и ученика. Наряду с кооперативной педагогикой существует также понятие педагогического сотрудничества, которое используется в случаях конвергенции дисциплин.

Ключевые слова. Педагогика, образовательный процесс, совместное обучение, имитационное обучение.

Педагогика – это совокупность дисциплин, изучающих теоретические и практические аспекты воспитания, образования и информационного обеспечения. Образовательные технологии, позволяющие преподавателю доносить до обучающихся большое количество информации в короткое время занятия, основаны на интерактивных методах обучения. Интерактивные образовательные технологии – это партнерство преподавателя и обучающегося, основанное на совместной деятельности. Необходимо добиться превращения обучающегося в активного участника процесса обучения, а преподавателя – в организатора его учебной деятельности. Соотношение вклада преподавателя и обучающегося в образовательный процесс было различным в разные периоды развития человечества, хотя когда-то лидерами были учителя, в определённые периоды инициативу проявляли ученики, и были изучены положительные и отрицательные стороны такой деятельности. В последние десятилетия образовательные технологии, основанные на совместной деятельности учителей и учеников, стремительно развиваются и набирают популярность. Педагоги называют такие образовательные технологии «Совместное обучение», или называют кооперативным, коллаборативным. Коллаборативные образовательные технологии широко применяются в странах, таких как США, Япония, Великобритания и Германия, достигая высокой эффективности. Совместное обучение – это обучение в командах, малых группах, имитационное обучение, самостоятельное и интерактивное обучение. Идею кооперативного обучения развивает профессор университета Дж. Хопкинс Р. Славиным (1990) и профессором Калифорнийского университета Ш. Шэрон (1988) и

доктор. Разработанное ими совместное обучение направлено, главным образом, на формирование у студентов знаний, навыков и компетенций, указанных в государственных образовательных стандартах и в учебных программах соответствующих дисциплин. Совместное обучение, рекомендуемое исследователями многих европейских стран, в основном предполагает обработку учащимися учебного материала, разработку проектных заданий, учебные дискуссии и дебаты. Эти идеи дополняют друг друга, обогащая их в дидактическом плане. Целью совместного обучения является создание механизма управления осваиваемой деятельностью и совместными действиями, отношениями и коммуникацией. Результатом кооперативного обучения является возникновение у учащихся новых идей и целей, связанных с сущностью осваиваемой деятельности, а также стремление к управлению позицией личности в партнёрстве. Метод кооперативного обучения следует рассматривать как систему совместных действий учителя и ученика. Постепенно активность ученика развивается и превращается в полностью самостоятельную практическую и интеллектуальную деятельность. Отношения между учителем и учеником приобретают партнерский характер. Кооперативное обучение предполагает обучение каждого ученика ежедневному интенсивному интеллектуальному труду, творческому и самостоятельному мышлению, воспитание осознанности и самостоятельности личности, формирование у каждого ученика чувства собственной значимости, укрепление уверенности в своих силах и способностях, формирование чувства ответственности за обучение. Наряду с кооперативной педагогикой существует также понятие педагогического сотрудничества, которое используется в случаях конвергенции дисциплин. Существуют различные формы педагогического сотрудничества, которые зависят от вида сотрудничества, количества участвующих в процессе преподавателей, цели и места осуществления образовательного процесса, а также размера учебной группы. Данный процесс был разработан Сунцовой Е.Н. на основе отечественного и зарубежного опыта преподавания иностранного языка в технических вузах. В данном случае реализуется междисциплинарное педагогическое сотрудничество. Существует несколько других типов, в зависимости от цели организации процесса. Во всех из них работа преподавательского коллектива дала положительные результаты. Сунцова Е.Н. высказала своё мнение об организации обучения иностранному языку в технических вузах. В этом случае для проведения занятий в рамках педагогического сотрудничества формируются различные команды лингвистов, специалистов в данной области, приглашённых из-за рубежа специалистов и вторых лингвистов: лингвист, специалист в данной области;
лингвист, специалист в данной области, консультант; лингвист, специалист в данной области, приглашённые из-за рубежа специалисты; двуязычное обучение и т. д. В любом случае, совместное обучение – это особый, уникальный метод педагогического процесса, ставящий перед педагогическим коллективом важные задачи для решения. При этом методе обучения в условиях преподавания разных предметов учебный материал приобретает новую структуру, создаются программы,

разрабатываются новые формы и методы обучения. В этом случае в состав учебного материала включаются начальные уровни знаний, умений и навыков, закрепляющие и развивающие ситуации, вопросы и задачи по взаимосвязанным предметам. При этом необходимо включать определения и вопросы по ним, которые послужат основой для изучения новых предметов в будущем. Этот творческий процесс должен быть тщательно спланирован и проконтролирован с учётом уровня подготовки учащихся. При правильной организации процесса усиливается педагогический синергетический эффект и усиливается стремление учащихся к обучению.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Махкамов У., Тилабоева Н. Профессиональные навыки. Учебное пособие. – Т.: ТДИУ, 2007.
2. Тухтамушова А.У. Организация самостоятельного обучения по общей и неорганической химии, часть 1 / учебник. – Ташкент: «Мохирбек-зиё», 2022, –192 с.
3. Хасанбоев Ж. и др. Педагогика. Наука и техника. 2010. – 31 с.
4. М.В.Крулехт. Чему и как учить студентов гуманетарного университета. Педагогика высшей школы №1. 2009 158-159с.
5. Ефимов П.П., Ефимова И.О. Педагогические условия успешности процесса в высшем учебном заведении. Педагогика высшей школы№1 (1), март 2015. С. 26-27.

THE ROLE OF ENGLISH IN AN ECONOMIST'S CAREER

Kamilova Zulfira Abdujabbarovna –
Teacher of Chirchik State Pedagogical University
zulfirakamilova@gmail.com

Talipova Sugdiana Sandzharovna -
student of the Faculty of Banking and Audit of Tashkent State University of Economics.

